

O`zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O`zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi
Usmonova Shafoatning
“Muqimiy she’riyatida norozilik g`oyalari”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. T.Xo`jayev

MUNDARIJA:

Kirish.....	3- 8
I BOB. I. Muqimiy she'riyatining janr va mavzulari.....	9-29
II BOB. Muqimiy she'rlarida norozilik g`oyalarining talqini.....	30- 48
Umumiy xulosalar	49-51
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	52-53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar mobaynida yaratib kelingan g`oyat ulkan, bebaho ma`naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo`lib qoldi” , - deb yozgan edi mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov¹. Ko`hna Turonning ilmiy, madaniy markazlaridan biri – Xo`qand latif qadimdan iste`dodli shoirlar, olimlar, san`atkor, qo`li gul hunarmandlar shahri sifatida dong taratib kelgan.

Ma`lumki, XVIII-XIX asrlarda markazlashgan Qo`qon xonligi o`z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko`tarildi. Mazkur mamlakatda iqtisodiy hayot ancha jonlandi, shu tufayli xalq ma`naviy-madaniy turmushida katta ijobiy o`zgarishlar yuz berdi. Yozma adabiyot, ilm-fan, turli san`at va hunarlar rivoj topdi. Qo`qon tom ma`noda shoirlar, fozillar shahriga aylandi. Bu yerdan o`zbek va tojik adabiyoti rivojiga munosib hissa qo`shgan shuaro, ulamolar yetishdi.

O`zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri qo`qonlik shoir Muqammad Aminxo`ja Muqimiydir. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashab ijod etgan boshqa shoirlardan farqli o`laroq Muqimiy she`rlari xalq tomonidan sevib o`qilgan, kuyga solinib, qo`shiq qilib kuylangan, mazmundor va xalq og`zaki ijodiga yaqin uslubda yaratilgan g`azallari xalq muhabbatiga sazovor bo`lgan. Buning sabablari haqida gapirar ekan, adabiyotshunos olim G`ulom Karimov shunday deydi: “Muqimiy asarlarining bunday keng tarqalishiga sabab ularning mazmun jihatidan xalq ruhiga yaqin bo`lishidan tashqari, san`at jihatidan yuksak, badiiy shakl jihatidan bekami-ko`st, yetuk bo`lishlari ham edi”². Haqiqatdan, Muqimiy o`z she`rlarining g`oyaviy yuksak bo`lishi uchun kurashish bilan birga, talabchan san`atkor sifatida shu ilg`or g`oyaga mos tushadigan shakl yaratishga ham, asarning har tomonlama yetuk bo`lishi uchun

¹ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. Toshkent, 1998. 125-bet.

² Karimov G`. Muhammad Aminxo`ja Muqimiy. Asarlar. 2 jildli. 1-jild. Toshkent, 1960. 21-bet.

ham ko`p mehnat sarflaydi. Natijada aniqlik, ravshanlik, uslubiy ravonlik, vazn quvnoqligi va o`ynoqiligiga erisha oladi.

Shoir she`rlari orasida norozilik kayfiyatida yaratilgan, zamondan, tuzumdan, zamon kishilaridan, ularning qilmishlaridan norozilik ohanglarida yaratilgan she`rlar talaygina. Ushbu she`rlarni o`rganish va tahlil qilish bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o`rganilganlik darajasi. Muhammad Aminxo`ja Muqimiy ijodini o`rganish uning hayotlik chog`idan boshlangan. She`rlariga bildirilgan turli-tuman munosabatlar, ular haqdagi bahslar, maqolalar bunga dalildir. Muqimiy o`zining shirador va mazmundor g`azallari bilan o`z davridayoq xalq e`tiboriga sazovor bo`lgan edi. Kam ijod ahllariga muyassar bo`ladigan bu baxt uning she`rlarini xalq orasiga chuqur singib ketishida, kuylarga solib kuylanishida, avloddan-avlodga o`tib saqlanib kelishida ham namoyon bo`ladi. O`sha zamonning ilg`or shoirlaridan biri Mavlaviy Yo`ldosh Muqimiy o`limiga bag`ishlab marsiya yozgan va unda shoirga bo`lgan xalq hurmatini ifoda qilgan edi. Shuningdek, o`ratepalik tojik shoiri Javhariy “Guzorishi holi Muqimiy Farg`oniy” (“Farg`onada Muqimiyning kechirganlari”) sarlavhasi bilan kattagina doston yozib, shoir obrazini yaratgan edi.

Shoir vafotidan keyin uning devoni “Devoni Muqimiy” nomi bilan ilk bor 1907-yili N.Ostroumov tomonidan nashr etildi. Unda shoirning she`riy asarlari bilan birga tarjimayi holi va ijodi haqida qisqacha ma`lumot ham berilgan edi. Maqola muallifi N.Ostroumov uning shaxsiga baho berarkan, shoirni o`quvchiga qalandarsifat, darveshvash bir qiyofada taqdim etadi va asosiy mashg`ulotini taqvo va she`r yozish edi, deb ko`rsatadi. Buning tagida shoirni xalqdan uzib olishga urinish yotishini payqash qiyin emas. 1910- yili Porsev litografiyasida “Devoni Muqimiy maa hajviyot” nomi bilan shoir asarlarining ikkinchi nashri amalga oshirildi. 1912-yili yuqoridagi nomda Muqimiy asarlarining uchinchi nashri dunyo yuzini ko`rdi.

Yigirmanchi asrning boshlaridan boshlab, shoir ijodini o`rganish yangicha

tus oldi. Shoir ijodini jiddiy va keng ko'lamda o'rganish o'tgan asrning 30-yillaridan boshlandi. Bu davrda Muqimiy asarlarini to'plash, o'rganish, nashr etish qizg'in va samarali olib borildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e'lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida otaxon shoirimiz G'afur G'ulom turdi. Uning tashabbusi bilan 1938-yili "Muqimiy bayozi" tuzilib, nashr etildi. 1938, 1943, 1953-yillarda shoir xotirasiga bag'ishlangan anjumanlar o'tkazildi.

Muqimiy ijodini o'rganishda professor G'ulom Karimovning xizmatlari katta bo'ldi. G'.Karimov – muqimiyshunoslik maktabiga asos solgan olim. Muqimiy asarlarining shu kungacha amalga oshirilgan o'zbek, rus va boshqa tillardagi nashrlarining aksariyati professor G'.Karimov nomi bilan bog'liq¹.

Istiqlol yillarida adabiy merosimizni xolis va haqqoniy o'rganish yo'lida keng imkoniyatlar ochildi. Ilgari nohaq qoralangan yoki bir yoqlama o'rganilgan ijodkorlar haqida xolis ilmiy tadqiqotlar yaratilib, ularning asarlari chop etildi. Muqimiyshunoslik ham istiqlool munosabati bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Shoir bosib o'tgan murakkab ijodiy yo'l va uning sarmazmun adabiy merosini mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlari nuqtayi nazaridan ko'zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor. Bu borada professor G'ulom Karimov izdoshlari samarali ish olib bormoqdalar.

Shoir she'rlarida norozilik, shikoyat bilan bog'liq fikrlarning tahlili A.Abdug'afurov tadqiqotlarida qisman yoritilgan. Bunda olim shoirning ba'zi g'azallarida ifoda etilgan norozilik tuyg'ularini tahlil etadi, ammo mavzuni asosan hajviy asarlari misolida yoritishga harakat qiladi.

Muqimiy she'riyatida norozilik ohanglarining mavjudligi, davrdan, zamondan, ba'zi bir zamondoshlarining xatti-harakatlaridan norozilik g'oyalarini mavjudligi va ularni jiddiy o'rganish maqsadi bizni ushbu mavzuda bitiruv malakaviy ishni tayyorlashga undadi.

¹ Qarang: Muqimiy, Tanlangan asarlar. T.: O'zFA nashriyoti, 1958; Mukimi. Izbrannyye proizvedeniya. T.. izd. AN Uz. 1958; Muqimiy, Asarlar to'plami, Ikki tomlik, 1-2 tomlar, T.: O'zdavnashr, 1960.; Muqimiy, Tanlangan asarlar, T.: O'qituvchi, 1973; Muqimiy, Asarlar, T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1974 va b

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Muqimiy she'riyatining g'oyaviy asoslarini tadqiq etish va bunda shoirning o'ziga xos mahoratini ko'rsatib berishdan iboratdir. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi masalalarni hal etishga harakat qilindi:

- Muqimiy she'riyatini chuqur o'rganish;
- Muqimiy ijodiy faoliyatini to'liq yoritish, bu boradagi ziddiyatli qarashlar va bir yoqlama fikrlarga munosabat bildirish;
- Muqimiy she'riyatining janri, mavzulari va g'oyalari aniqlash;
- shoir ijodida norozilik g'oyalari aks etgan asarlarni alohida tahlil qilish;
- norozilik g'oyalari aks etgan asarlarda shoirning o'ziga xos ijodiy mahorati masalasini o'rganish va uni yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Muqimiy she'riyatida norozilik g'oyalarining talqin etilishi masalasining bitiruv malakaviy ishi sifatida o'rganilishi ishning ilmiy yangiligini ko'rsatib turibdi. Uning ilmiy yangiligi yana quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Muqimiyning ijodida norozilik g'oyalari aks ettirilgan she'rlar aniqlandi;
- norozilik g'oyalari aks ettirilgan she'rlar tasnif etildi;
- davrdan, mavjud ijtimoiy tuzumdan shikoyat g'oyalari aks ettirilgan she'rlar, oshiqona mavzudagi g'azallar tarkibida uchraydigan shu ruhdagi alohida baytlar tahlil etildi;
- Muqimiy she'riyatining obrazlar tizimi, badiiy san'atlarni tadqiq etish orqali shoir mahoratini ochib berish.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda Abdulatif Turdialiyev tomonidan nashrga tayyorlangan "Bog' aro" (Toshkent, 2010-yil) she'rlar to'plami asosiy manba vazifasini o'tadi. Shuningdek, Muqimiy asarlarining II tomligi (Muqimiy. Tanlangan asarlar.

Toshkent. 1960.) hamda Muqimiyning Ergash Ochilov tomonidan nashrga tayyorlangan “Ko`nglum sandadur” (Toshkent, 2009-yil) to`plamridan ham foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va ilmiy metodi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda ma`naviy qadriyatlarni o`rganishga oid asarlari bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga suyanildi. Bitiruv malakaviy ishida qo`yilgan masalalarni yoritishda G`.Karimov, B.Qosimov, U.Dolimov, E.Ochilov, V.Qodirovlarning ilmiy fikr va xulosalariga tayanildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishida Muhammad Aminxo`ja Muqimiyning adabiy merosi, mavzu ko`lamlari, she`rlarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari atroflicha o`rganildi. Shoir ijodiga xos bo`lgan xususiyatlar she`riy asarlar tasnifi va tahlili orqali ko`rsatildi. Muqimiy she`riyatining salafлари ijodi bilan qiyosiy o`rganilishi XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi o`zbek she`riyatining boy xazinasini tushunishga qaratildi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ilgari surilgan nazariy qarashlar va tahlillardan kurs ishlari yozishda, seminar mashg`ulotlariga tayyorlanishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, ikki bob, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 53 bet.

I BOB. Muqimiy she'riyatining janr va mavzulari

O'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmi va yigirmanchi asr boshlarida o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Muhammad Aminxo'ja Muqimiydir. U o'z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida devon adabiyoti deb nomlanadigan Sharq adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi. Ayni paytda rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Uning she'rlari hayotlik paytidayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog'lar, xonandalar qo'shiq qilib aytar edilar. Muqimiy milliy ozodlik harakati haqida she'rlar yozgan, o'z salohiyati va mavqei bilan maktab yaratgan shoir edi. Biroq shoirning ijodiy merosi "Devon", "Majmua" yoki "Bayoz" holida to'liq yetib kelgan emas. Shoirning ijodiy merosini tashkil etuvchi 1960-yilda nashr etilgan 2 jildlik asarlar to'plami turli xil manbalarda to'plangan asarlaridir.

Muqimiy badiiy ijod bilan qachondan shug'ullana boshlagani aniq ma'lum bo'lmasa-da, taxminan 60-yillarning o'rtalaridan deb taxmin qilish mumkin. dastlab Qo'qon madrasasida, so'ngra Buxoro madrasasida o'qib yurgan yillari, taxminan 1876-yilgacha lgan oraliq davr shoir ijodining ilu davri hisoblanadi. Bu davr ijodida an'anaviy usul, mavzu, turli xil istioralar, shuningdek, o'ziga xos soddalik, jo'nlik sezilib turadi. Biroq shunday bo'lsa-da, A.Karimov aytganidek, "Uning bir ancha she'rlarida muhabbat yuksak insoniy fazilatlarni kuylash vositasi emas, balki shahvoniy hisni ifodalash quroliga aylanib qolgan", - deb baholash o'rinsizdir. Aksincha, bu soddalik va jo'nlik har bir ijodkorning ilk davri uchun xos xususiyatdir.

Muqimiy ijodining ikkinchi davri 80-90 yillar oralig'ini o'z ichiga oladi. Chunki shoir merosining asosini tashkil etuvchi lirika, hajviyot, sayohatnomalari mana shu yillar oralig'ida yaratiladi. Bu, albatta, bir tomondan shoirning ijodiy tajribasining ortib borishi bo'lsa, ikkinchidan, hayotga nisbatan qarashlarining o'zgarishi natijasidir.

Bu o`zgarish 1876-yillardan boshlab seziladi. Dastlab Qo`qonning katta boylaridan bo`lgan Shayx Sulaymon Afg`oniy va uning atrofida bo`lgan Mug`ziy, Xazoniy, Kotibiy kabi shoirlar davrasida bo`lgan bo`lsa, Qo`qon yer qurilish “mahkamasi” hamda Oqjar poromida ishlab mavjud hayot sharoiti bilan bevosita tanishi, mehnatkash xalqning ayanchli hayoti, qolaversa, 1876-yildan Qo`qon xonligining tugatilishi so`ngidagi muayyan o`zgarishlar, o`z turmushidagi qiynchiliklar ana shu o`zgarishga sabab bo`ladi. Natijada turmush tashvishlaridan ko`ra ko`proq badiiy ijod bilan mashg`ul bo`lganligini kuzatish mumkin. Negaki, Muqimiy she`rlarini o`z ichiga olgan bayozlar 80-yillarning boshlariga to`g`ri keladi. 1881-yilda tug`ilgan bir bayozda “O`lmasun” radifli bir she`ri kiritilgan bo`lsa-da, 1883-yilda tuzilgan bayozda 20 ga yaqin she`ri kiritilgan. Bundan keyingi bayozlarda ham uning she`rlari borgan sari ko`proq uchraydi. Demak, Muqimiy ana shu 80-yillarning boshlaridanoq shoir sifatida shuhrat qozona boshlagan.

Shoir qarashlarining o`zgacha tus olishi, qalamining o`tkirlashib borishi, uning Toshkentga safari adabiyotlarda alohida qayd etiladi. Birinchi safari 1887-88 yillarga to`g`ri kelib, bunda zamonasining olimi, iste`dodli shoiri Almaiy bilan yaqin munosabatda bo`lishi, Nodim Namongoniy bilan uchrashuvi, shuningdek, Toshkentda yuz berayotgan o`ziga xos o`zgarishlar katta taassurot qoldirdi. Shu bois 1892 va 1899-yillarda yana ikki marta Toshkentga safar qildi.

Muqimiy ijodining uchinchi davri avvalgisidan jiddiy farq qilmaydi. 190-yili Andijonda yuz bergan zilzila bois yozilgan 54 misradan iborat “Tarixi zilzilai Andijon az Mavlono Muqimiy” nomli she`rida rus xalqi va madaniyatiga ijobiy qaralganligi, madh etish uchun alohida ko`rsatiladi. 1903-yil 15-yanvar “Turkiston viloyati” gazetasida bosilgan “Ko`r. Ashurboy Xoji” satirik she`ri ham ijodining so`nggi namunasi deb qaraladi.

Muqimiy o`z davrining mashhur shoirlari bo`lmish Muhyi, Nisbatiy, Furqat, Zavqiy, Muhayyirlar bilan shu yerda uchrashib, do`stlashdi, ular bilan adabiy majlislar, mushoiralar o`tkazdi. Bu adabiy hamkorlik samaralarini biz mazkur shoirlarning ijodiy merosidagi bir xil mavzu, bir xil radif va qofiyadagi

ko`plab she`rlarda ko`rishimiz mumkin. Jumladan, Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Nusrat, Nisbatiylarning birgalikda G`oziy g`azaliga bog`lagan muxammaslari, “Gul”, “Sandali” radifli g`azallar, “Viktor” siklidagi satiralar, “Fonus”, “Ko`samen” singari yumoristik she`rlar fikrimizga dalil bo`la oladi.

Muqimiyning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosini 10 ming misra atrofida taxmin qiladilar¹. Ular asosan **lirika** va **hajviyot**dan iborat. Shoir adabiy merosida mumtoz adabiyotimizda keng qo`llanilgan bir qancha janrlar – g`azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard singari janrlarda qator she`rlar yozilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, Muqimiy asarlari bir necha marta chop etilgan. Muqimiy asarlarining nisbatan to`lig`i 1960-yilda nashr etilgan ikki tomlik asarlar to`plamidir. Bundan tashqari, 1980-2006 yillarda shoir asarlari yana bir necha marta nashr etilgan. 2010-yilda filologiya fanlari nomzodi Abdulatif Turdiyev tomonidan shoir asarlari ana shu nashrlarga tayanilgan va ilgari ma`lum bo`lmagan, keyinchalik matbuotda e`lon qilingan she`rlari (ular jami 16 ta) qo`shilgan holda nashrga tayyorlandi². Lirik she`rlari devon tartibida joylashtirilgan ushbu kitobda Muqimiy she`rlar tartibi va miqdori quyidagichadir:

№	Janr	Soni
1	G`azal	151
2	Murabba`	14
3	Muxammas	31
4	Ta`rix	4
5	Ruboiy	1
6	Fard	8
7	Hajviyot	44

¹ Karimov G`. O`zbek demokratik shoiri Muqimiy. (So`zboshi) // Muqimiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958. 11-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010.

8	Sayohatnoma	1
9	She'riy maktublar	4

Ushbu ishda Muqimiyning g`azal, murabba', muxammaslarini mavzu nuqtayi nazaridan tahlil qilishga harakat qilindi.

Avvalo shoir g`azallari xususida. Muqimiyning ushbu kitobga kiritilgan g`azallarining umumiy soni 151 ta bo`lib, ularni mavzusiga ko`ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ishq-muhabbat, sevgi mavzusidagi g`azallar.
2. Do`st-birodarlar, yaqin oshnolariga bag`ishlangan g`azallar.
3. Ijtimoiy mavzular yoritilgan g`azallar.
4. Hajviy g`azallar (Muqimiy hajviy asarlarining 27 tasi g`azal shaklida yaratilgan).

Ko`rinib turibdiki, Muqimiy qoldirgan adabiy merosning katta qismini g`azallar tashkil etadi. Shoir lirikasining ham g`oyaviy, ham badiiy kamolotga erishuvida xalq og`zaki ijodi bilan bir qatorda ko`p asrlik she'riyatimizning, xususan, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Amiriy kabi shoirlarning ijodi samarali ta'sirini ko`rsatgan. Muqimiy o`z lirikasida chin sevgini, sadoqat va vafodorlikni, insonni ko`rkamlashtiruvchi, uni ma'naviy go`zal etuvchi fazilatlarni ulug`laydi, bevafoqlik va subutsizlik, inson sha'niga dog` tushuruvchi illatlarni qoralaydi.

Shoirning do`st-birodarlariga, yaqin oshnolariga bag`ishlangan she'rlarini, shuningdek, ijtimoiy mavzulardagi g`azallarini biz keyingi fasllarda tahlilga tortamiz. Shuning uchun ushbu bobda Muqimiyning faqat muhabbat mavzusidagi g`azallari, ulardagi obrazlar, badiiy tasviriy vositalarga e'tibor qaratmoqchimiz.

Muqimiy o`z g`azallarida keng ma'nodagi muhabbatni, muhabbat alangasida yongan insonni kuylaydi. Bu inson istaklari, armonlari, kurashlari, kechinmalari, sevinch va alamlari, Muqimiy she'rlarining mazmunini tashkil etadi. Shoir she'rlarida gavdalangan lirik qahramon do`stlik, sadoqat, samimiyat,

vafodorlik, maqsad yo`lida sabot va matonat bilan kurashish kabi olijanob insoniy fazilatlarga ega. Bu insoniy fazilatlarni kuylash, madh etish orqali Muqimiy kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intildi.

Muqimiy g`azallarining keng xalq ommasiga qadrli va aziz qilgan narsa shu ediki, u g`azallarda yaxshi insoniy xislatlar tarannum qilinar, adolatli va baxtli zamonlarni orzu qilish va shunday zamonlar kelishiga ishonch ovozlari baralla jaranglar edi.

Muqimiyning juda ko`p g`azallari uning tirikligidayoq qo`shiq qilib kuylangan. Uning she`rlari ko`proq xonandalar orqali yoyilgan. Juda ko`p taniqli san`atkorlar o`z hayotlarini Muqimiy ijodi bilan bog`laganlar. Shoir she`rlarida Mamajon makay, Nizomxon, Farzincha (Farzinxon), Ismoil naychi ismlari uchrab qoladi. Ularga bag`ishlangan baytlar, she`rlar ham bor. Bular o`sha davrdagi mashhur san`atkorlarning ismlari, laqablari. Muqimiyning ular bilan bunday yaqin aloqasi bejiz emas. Shoir g`azallari musiqiy, ohangdor edi, xaridori ko`p edi. Bu she`rlarning mavzui aksariyat an`anaviy, yor haqida. Uning husni, ya`ni qoshi, ko`zi, yuzi, sochi, qaddi-qomati ta`rifiga bag`ishlangan. Oshiq shoir visoldan quvonadi, hijrondan iztirob chekadi. Lekin har qanday holda ham yorning husni davlatiga rivoj tilaydi. Uning mehr va shafqatidan umidvor. Ammo u yor qanchalik go`zal bo`lsa, shunchalik bevafo, jafokor. Shu sababli, shoir she`rlarida quvonchdan hasrat ko`p.

Tiyg`ing mening qonimdadur, zulfing giribonimdadur,

Yuz ming alam jonimdadur, man muftalo qayda boray?!¹

Ishqiy an`anaviy she`rlar zamonga moslanib bordi. Masalan, Muqimiy va uning zamonasida “Surating” radifli she`rlar paydo bo`ldi. Bu, birinchi navbatda, fotografiyaning hayotga kirib kelishi bilan izohlanadi.

Muqimiy g`azallarida ham ma`shuqa ko`zlari ta`rifiga katta e`tibor berilganligini kuzatish mumkin.

Surma qo`ymay muncha ham, jono, qarodur ko`zlaring,

Har biri jon qasdig`a boqqan balodur ko`zlaring¹.

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 142-bet.

Ushbu misralar xalqonaligi bilan, urf-odatlar va an'analarga yaqinligi bilan kitobxonni o'ziga rom etadi. Shoir ushbu g'azalning bir baytida o'z husnini tomosha qilolmay ado bo'lgan ko'zlar haqida shunday yozadi:

*Intizor aylab o'zi ham, ajrig'a oyinasi,
O'z jamolini ko'rolmasdin adodur ko'zlaring.*

Ko'z qorachig'ining qoraligi ham aslida go'zallik belgisi. Ammo Muqimiy ushbu holatdan boshqacha bir manzara yaratishga harakat qiladi.

*Kofir ermas gar qaro kiygan iki mardumlaring,
Muncha mundog`nomusulmonlig`shior aylar ko'zing².*

Shoir tasvirida ma'shuqaning qora ko'zlari "qaro kiygan" musulmonga qiyos qilinmoqda, ammo uning "shior"i "nomusulmonlig'", musulmonlarga to'g'ri kelmaydi, "kofir"larning ishini qiladi.

Muqimiy she'rlarida hassos muhabbat bilan vasf etgan mahbuba shunchalar go'zalki, u yuzini ochib ko'zguga bir boqsa, husning yolqiniga tobu toqat keltirolmay ko'zgu suv bo'lsa, sira ajablanish kerak emas:

*Husnidin o'tlug`, ne tongkim, boqsa ruxsori ochib,
Kelturalmay tobu toqat bo'lsa ko'zgu suvgina³.*

Uning sollanib, nozik xirom etishini ko'rsa, tovus rashkidan bog'larda oh uradi, kaklik hasratdan tog'larda o'tga tushgan sochday o'rtanadi:

*Oh urar tovus bog'larda xiromini ko'rib.
Hasratidin kabk go'yo o'tka tushgan mo'gina.*

Bunday go'zalning ishqida oshiq begunoh odamlarning uyqusini har kecha harom qilib, to tonggacha oh urib chiqishi hech kimni hayron qoldirmaydi:

*Aylab hamisha xo'blara uyquni harom,
Bir nozanin yodida bemorman yana.*

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 71-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 63-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 153-bet.

Uni nogah ko`rib qolsa, oshiq ahli hushini yo`qotib, turgan yerida “surati devor” bo`ladi-qoladi:

*Nogah, Muqimiy, uchrasa, aqlu hushim ketib,
Ko`rgan yerimda surati devorman yana.*

Sharqning eng zo`r musavviri Kamoliddin Behzod ham bunday go`zalning suratini chizolmay, qalam ustiga qalam sindirdi, holbuki, u shuncha surat chizib, buncha ko`p qalam sindirmagan edi:

*Xoma sindirdi chekolmay surating tasvirini,
Singan erdi shuncha suratlar chekib Behzod kam¹.*

Shoir kutilmagan o`xshatishlar, tashbehtar vositasida go`zal badiiy ifodalar yaratadi. Masalan, bir baytda ma`shuqaning gap-so`zdan qo`rqib, odamlarning nigohidan uyalib, ming bir andesha iskanjasida jovdirab kelayotganini kutilmaganda gavjum shaharga tushib qolgan hurkak cho`l ohusining holatiga tashbeh qiladi:

*Xalqdin eltib hayo, vahshat chekib beixtiyor,
Shahrga tushgan kabi bir ohuyi sahro kelur².*

Ma`shuqa yuzining ikki tomondan o`rab turgan zulfini gul yuziga halqa urgan ilonga o`xshatadi:

*Orazida ikki zulfini ko`rib purpechu tob,
Gul yuzida halqa urmushmu, dedim, mor, uyquda³.*

“Shoir hamisha obrazlar til bilan so`zlashga, fikru tuyg`ularini biror narsaga qiyosan go`zal va ta`sirchan shaklda ifodalashga harakat qiladi. Binobarin, yorsiz oromu sabrini yo`qotib, bezovta va beqaror bo`lganini, o`zin har yoqqa urib, nima qilishini bilmayotganini ilon chaqqan kishining ahvoliga o`xshatar ekan, bu tashbeh uning holatini butun murkkabligi bilan tasavvur

¹ Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent, 2009. 135-bet.

² Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent, 2009. 204-bet.

³ Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent, 2009. 37-bet.

etishga imkon yaratishi barobarida, baytning badiiy yetuk va ta'sirchanligini ham ta'minlaydi"¹.

*Ohkim, sensiz qaroru sabru oromim ketib,
Bir ilon chaqqan kishidek har taraf to'lg'onaman*².

Ishq tufayli qanday balolarga duchor bo'lganini agar ishq dashtida Majnun uchrasa, boshidagi ming savdoni ko'rib, holiga yig'lashi bilan dalillaydi. Majnun muhabbati tarixidan xabardor o'quvchi esa hatto buyuk Ishq telbasi Majnunning rahmini keltirgan oshiqning ahvoli qanchalik chidab bo'lmas ekanligini tasavvur qilib olaveradi:

*Menga Majnun uchrasaydi ishq dashtida agar,
Yig'lar erdi holima boshimda ming savdo ko'rub*³.

Haqiqiy shoirlik, chinakam badiiy kashfiyot deganlari aslida – shu.

Boshqa bir baytida shoir hajringda shu qadar yig'ladimki, ko'zim to'kkan qonli yoshlardan dasht lolazorga aylandi:

*Hajringda yig'ladim chunonki, qon yoshim bilan
Dasht o'ldi lolazor, tasadduqing ketay*⁴.

Oshiqning hijron azobidagi og'ir ahvolini bundan ortiq tasvirlash qiyin.

Shoir ana shunday xalqona tansiq so'z va iboralar, kutilmagan timsol-u tamsillar, "nishonga tegadigan" ta'sirchan so'zlarni topib, o'rniga qo'yib ishlatadi va she'rlarining badiiy barkamolligini ta'minlab, estetik ta'sir kuchini oshiradi. "Bu so'zlar ko'ngilning allaqayeriga xush yoqib, iliq bir kayfiyat paydo qiladi"⁵.

Muqimiy ana shunday oddiy so'zlar vositasida eng oliy haqiqatlarni ayta oladigan darajada yuksak iste'dod sohibi, mahorat egasidir. She'rga tushib-

¹ Ochilov E. O'zbek xalqining mo'tabar shoiri / Muqimiy. Ko'nglum sandadur. Toshkent, 2009. 27-bet.

² Muqimiy. Bog' aro. Toshkent, 2010. 104-bet.

³ Muqimiy. Ko'nglum sandadur. Toshkent, 2009. 54-bet.

⁴ Muqimiy. Bog' aro. Toshkent, 2010. 143-bet.

⁵ Ochilov E. O'zbek xalqining mo'tabar shoiri / Muqimiy. Ko'nglum sandadur. Toshkent, 2009. 28-bet.

tushmagan soʻzlar ham shoir sheʼrlarida oʻziga xos oʻrin topib, muayyan badiiy maqsadga xizmat qiladi.

Didaktik xarakterdagi bir gʻazalida Muqimiy oʻzining ijodiy qatʼiyatini shunday ifoda etadi:

*Boʻlimgʻay hosil, Muqimiy, maʼniye har lafzidin,
Dona sochqon birla har qishloqi dehqon boʻldimi?¹*

Bu ifodada oʻquvchi diqqatini avvalo uslubdagi soddalik, ifodadagi xalqonalik oʻziga tortadi. Ayni shu narsa shoir muvaffaqiyatining yetakchi omillaridan biri boʻlib qoldi. Uning sheʼrlarida mumtoz adabiyotga xos andozaviy iboralar bilan birgalikda, kundalik hayotda ishlatiladigan oʻzbekona ifodalarni koʻplab uchratamiz. Muqimiy lirikasini xalqona ifoda omillari nuqtai nazaridan tahlil qilgan tadqiqotchi V.Qodirov shoir sheʼriyatida xalqonalikni yuzaga keltiradigan vositalar sifatida quyidagilarni ajratish mumkinligini qayd etadi²:

1.Xalq orasida muayyan tuygʻu, kayfiyat yoki munosabatni ifodalashga xizmat qiladigan qoʻshimchalar:

*Navniholikim, qadi sarvu sanovbardakkina,
Gʻuncha – ogʻzi, lablari – bargi gulitardakkina³.*

Baytda *-dakkina* (*-dak* va *-kina*) qoʻshimchasi orqali yorning nozikligi, lirik qahramonga yaqinligi hamda suyukliligi berilgan. *-dak* qoʻshimchasi *-dek* qoʻshimchasining xalq orasida qoʻllaniladigan shakli boʻlib, asosan ijobiy boʻyoqdor soʻzlarga qoʻshiladi ham *-kina* (*-gina* qoʻshimchasining varianti) bilan birga keladi.

2. Ogʻzaki soʻzlashuv jarayonida maʼlum nutq vaziyatlarida muqim qoʻllanadigan soʻzlar:

*Ol pardani yuzungdan, yur, oʻrgilay koʻzungdan,
Oʻynaylik, kulaylik, omon boʻlaylik,¹ -*

¹ Muqimiy. Bogʻ aro. Toshkent, 2010. 130-bet.

² Qodirov V. Muqimiy lirikasida xalqona ifoda omillari. Oʻzbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2008. 2-son. 51-52 betlar.

³ Muqimiy. Bogʻ aro. Toshkent, 2010. 43-bet.

baytidagi “o`rgulay” tahsin va tasadduqning o`zbekona shakli. Shuningdek, “O`ynaylik, kulaylik, omon bo`laylik” so`zlaridan iborat ikkinchi misradagi badiiylilik ifoda soddaligining mahsuli.

3. Tilda qo`llanadigan ibora (frazologik birliklar) hamda ideomalar.

Aqlu hush uchdi boshimdin, ey pari, devonaman,

Bir iloj qil, el ichra bo`lmayin afsona man,² -

baytidagi “*Aqlu hush uchdi boshimdin*”, shu g`azalning oltinchi baytidagi “*Bir ilon chaqqon kishidek har taraf to`lg`onaman*” iboralari she`r tilini sodda va o`quvchiga yaqin, tushunarli bo`lishini ta`minlagan.

4. She`rdagi jumalarning aruziy ifoda tarzidan ko`ra og`zaki nutq shakliga monand qo`llanishi. Masalan, “Rashkim kelur” g`azalining deyarli har bir baytida shu holat kuzatiladi:

Aylashib ulfatchilik har yerda gaplashkim kelur”, “*Maxfiy imloshkim kelur*”, “*Nozlar bila xirom etkach, quvloshkim kelur*”, “*Ko`chada san birla har soat uchrashkim kelur*” jumllalarini o`qigan kitobxon o`zini xuddi shoir bilan yonmayon o`tirib, suhbatlashayotgandek his qiladi.

5. She`r bayti, bandlarini to`lig`icha so`zlashuv nutqi yoki xalq og`zaki ijodi vazni bo`lmish barmoq she`riyati ifodasiga yaqin tarzda shakllantirish:

Ol xabar ul sarvinoz uyqusidin turganmikan?

Nogah turgan bo`lsa, tush-mush ham so`rang, ko`rganmikan?³

Ushbu misralarni o`qigan kishiga lirik qahramon go`yo yaqin odami haqida “Qarachi, uyqudan turdimikan? Tush-push ham ko`ribdimi?” deb so`ragandek bo`ladi. Og`zaki so`zlashuv nutqida –*mikan* qo`shimchasini ham faol ishlatamiz. Bu yuklama shubha-gumon hamda bilib, bilmaslikka olish (tajohuli orif) ma`nolarini ifodalagan. Ishqiy mavzudagi she`rlarda bu g`azalda bo`lgani kabi “*uyqusidan turganmikan?! Yoki “tush-mush ham, so`rang,*

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 53-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 104-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 111-bet.

ko`rganmikan?” tarzidagi ifodalar Muqimiydan oldin mumtoz she’riyatdagi hech qaysi bir shoirida uchramaydi.

Shunday qilib, mumtoz an’analarga xalqona ruh, milliy o`zgachalik baxsh eta olganligi Muqimiy ijodining o`ziga xosligini belgilaydi.

Ko`rinib turibdiki, Muqimiy tom ma’nodagi xalq shoiridir. Shoir she’riyatidagi xalqchilik xususida fikr yuritar ekan, adabiyotshunos olim Ergash Ochilov shunday ta’kidlaydi: “Aytaylik, Navoiy va Ogahiy asarlari bilan qiyoslaganda Muqimiy she’rlarining naqadar xalqchil ekanligi ma’lum bo`ladi. Aslida badiiy so`zni sodda asosga ko`chirish Boburdan boshlanib, Mashrabda o`zining haddi a’losiga yetgan edi. Lekin Mashrab she’rlari shaklan sodda, yengil, o`ynoqi va jarangdor bo`lsa-da, mazmunan an’anaviy – diniy-tasavvufiy mazmun, timsolu tashbehlarga boy edi. Muqimiy esa uni mazmunan ham soddalashtirdi”¹.

Muqimiy adabiyotimiz tarixidagi eng ko`p **murabba’** yozgan shoirlardan biri bo`lib, Mashrabdan keyin murabba’ janri taraqqiyotiga katta hissa qo`shgan ijodkor sanaladi. Bu janrga Muqimiy yangi hayot bag`ishladi. SHoirning xalq og`zaki ijodi yo`lida yozilgan sodda til va ravon uslubdagi hassos va o`ynoqi murabba’larining deyarli barchasi qo`shiqqa aylanib, xalq mehru muhabbatini qozondi. Muqimiy she’riyati chuqur hayotsevarlik ruhi bilan sug`orilgan, hasrat, shikoyat ohangi ustuvor she’rlarida ham nekbinlik kayfiyati barq urib turadi.

Murabba janri xalq og`zaki ijodiga yaqinligi bilan, xalqona ohanglarga uyg`unligi bilan shoir ijodidan mustahkam o`rin olgan deyish mumkin. Muqimiy lirik janrlardan murabbaga alohida e’tibor berdi.

Muqimiy she’riyatidagi, xususan, murabbalaridagi asosiy mavzu muhabbat mavzusini tashkil etadi. Albatta, bu mavzu qadimiy, ammo bu har bir shoir ijodida o`ziga xos mazmun, mohiyat kasb etadi. Muhabbat mavzusida she’r bitmoq ana shu munosabatlarni izhor etmoq emas, aksincha, muhabbat insoniy fazilatlarning ifodasi sifatida qaralmog`i kerak. Shu ma’noda Muqimiy

¹ Ochilov E. O`zbek xalqining mo``tabar shoiri / Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent, 2009. 18-bet.

she'riyati ham insonning istaklari, armonlari, kurashlari, kechinmalari, sevinch va alamlarini o`zida aks ettiradi. Yana bir jihati shundaki, inson bilan bog`liq bu holatlar Muqimiy she'riyatida juda ravon, xalqona bir ohangda bitilganki, bu shoir she'lari xalq orasida tez va keng yoyilishga, hofizlar nazariga tushishga sabab bo`lgan.

Muqimiy so`zidan bo`yi muhabbat, ey ahbob,

Tarannum qilsa mahfillarda hofizlarni xushxoni, - deydi shoirning o`zi ham. Xalq qo`shiqlari ruhida va o`ynoq vaznlarda yaratilgan murabbalar nihoyatda samimiy, sho`x va jo`shqin yangrab, o`quvchilarni o`ziga rom etadi. "Ey chehrasi tobonim", "Bir so`rmading, ey dilrabo, na bo`ldi?", "Emdi sendek, jono, jonon qaydadur!", "Tokim, jono, jilva bunyod aylading" misralari bilan boshlanuvchi murabbalar yaratilgan yillaridayoq hofizlar ijrosida yangarb, shoirga katta shuhrat keltirgan.

Ma'lumki, murabba' boshqa janrlardan, avvalo, vazn va qofiyasiga ko`ra farqlanadi. Ruboiy faqat hazaj bahridagina yozilsa, murabba' uchun bunday cheklanish yo`q. Ruboiy, tuyuq mustaqil to`rtliklardir, murabba'da esa bir necha to`rtliklar qo`shilishidan yaxlit asar bo`ladi va ular a a a a, b b b a, v v v a shaklida qofiyalanadilar. So`nggi bandda taxallus bo`ladi. Muqimiyning murabbalari yigirmadan ortiq, deyarli hammasi ishqiy mavzuda. Ohangdor, ravon. Vazniga ko`ra aruzdan barmoqqa yaqin turadi. Xalq qo`shiqlarini eslatadi. Masalan:

*Emdi sandek jono, jonon qaydadur,
Ko`rib gul yuzingni bog`da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur
O`zim har joydaman, ko`nglum sandadur.*

*Mehring o`ti nogah tushdi jonlarga,
Parvoyim yo`q zarra xonu monlarga,
Lola yanglig` to`lib bag`rim qonlarga
O`zim har joydaman ko`nglum sandadur.*

*Erta-yu kech fikru zikrim xayoling,
Bir so`rmading: "Nalar kechdi ahvoling?"
Eslarimga tushib shirin maqoling,
O`zim har joydaman, ko`nglum sandadur¹.*

Shoir murabbarida yorning oy yuzli jamoli, sunbul sochlari, Iso nafaslik so`zi, raftori ta`rif-tavsif qilinadi; oshiqning hijrondagi holati: ohu-fig`on chekishi, rangining sarg`ayishi, bag`rining qonga to`lishi, rashk o`tida yonishi singarilar bayon etiladi.

Muqimiy murabbarini tahlil qilish jarayonida oshiq ko`nglini qushga qiyos qilinganligini ko`rish mumkin. Masalan:

*O`zgalarni hardam masti jom aylab,
Muqimiyning ro`zgorini shom aylab,
Ko`ngil qushin bir boqishda rom aylab,
Chashming mardumlarin sayyod aylading².*

Ushbu misrlarda oshiq ko`ngli qushga, ma`shuqaning ko`zlari esa ovchiga qiyos qilinib, bir ko`rishda ma`shuqaga shaydo bo`lgan oshiq holati an`anaviy ov manzarasiga tashbeh qilinmoqda. Biz ushbu maqolada Muqimiyning ma`shuqa ko`zlari tasviri berilgan misralarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Shoir she`rlarida yorning ko`zlari nafaqat "sayyod", balki "shahlo", "sahbo", "cho`lpon", "nargisi mast", "jallod", "tarso" sifatlari bilan ham tilga olinadi. Muqimiy ijodida yorning ko`zlariga nisbatan qo`llangan yana bir original o`xshatishni uchratish mumkin. Shoir yozadi:

*Vasfing sig`mas bitkan bilan daftara,
O`xshar kokillaring toji afsara,
Taxti husning kifrikling panjara,
Iskandaru yoki Doro ko`zlaring³.*

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 172-bet.

² Muqimiy. Asarlar to`plami. 2 tomlik. 1-tom. Toshkent, 1960. 227-bet.

³ Muqimiy. Asarlar to`plami. 2 tomlik. 1-tom. Toshkent, 1960. 230-bet.

Demak, bu misralarda ma'shuqaning kokillari – sochi, kipriklari bilan birga ko`zlari ham ta'rif-tavsif qilinib, ular Eronning mashhur podshohlari Iskandarga, Doroga qiyos qilinmoqda. Yorning ko`zlariga nisbatan bunday qiyoslash faqat Muqimiy ijodiga xos bo`lib, uning xarakterli jihatlaridandir.

Muqimiy o`zbek fors-tojik shoirlari yaratgan ilg`or ma'naviy merosni chuqur o`rganib, Navoiy va Fuzuliy singari Sharqning buyuk klassiklari ijodining eng yaxshi va ilg`or an'analarini rivojlantirdi. Shu bilan birga, o`z e'tiborini xalq ijodiga, uning tuganmas va bitmas chashmasiga qaratdi. Muqimiy o`zbek tilida qanchalik go`zal, erkin va ravon yozsa, fors-tojik tilida ham shuncha go`zal, erkin va ravon yoza bildi. Shoir she'rlaridagi samimiyat, ravonlik va qaynoq jo`shqinlik Fuzuliy lirikasining eng yaxshi xislatlarini esga tushiradi:

*Mehring o`ti tushdi nogoh jonlarga,
Parvoyim yo`q zarra xonu monlarga,
Lola yanglig` to`lib bahrim qonlarga,
O`zim har joydaman ko`nglim sandadur¹.*

Ko`rinib turibdiki, Muqimiy murabba'larining yetakchi obrazi – lirik qahramon, avvalo, burch, vafo, sadoqat haqidagi ilg`or tushunchalarga ega bo`lgan sofdil, ma'naviy barkamol va ruhan boy shaxs sifatida gavdalanadi. U shoirga zamondosh, aniq tarixiy shaxs, mustamlaka zulmi ostida ezilgan va zo`ravonlik hukmronlik qilgan davr farzandi, mehnatkash xalq vakili, uning na molu dunyosi, na amalu mansabi bor. U raqib-u ag`yorlar tazyiqini, falak jabrini, charx zo`ravonligini o`zida doimo his etib, ruhan azoblanadi. Xuddi shunday holni shoir muxammaslaradi ham ko`rish mumkin.

Muqimiy bir necha **muxammaslar** ham yaratgan. Ularni mazmuni va ruhiga ko`ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ishq-muhabbat mavzusidagi muxammaslar.
2. Ijtimoiy yo`nalishdagi muxammaslar.

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 172-bet.

3. Satirik yo`nalishdagi muxammaslar.

Odatda, muxammaslar mustaqil ravishda yozilishi yoki boshqa shoir g`azaliga bog`lanishi mumkin. Boshqa shoir g`azallariga bog`langan muxammaslar “taxmis” deb yuritiladi. Muqimiy o`zi mustaqil muxammaslar yozish bilan birga, mumtoz adabiyotimizdagi taxmis yozish usulidan ham keng foydalandi. Shoir merosida Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Amiriy g`azallariga, shuningdek, Furqat, Zavqiy, Nodim kabi zamondoshlari hamda o`z g`azallariga bag`ishlangan taxmislar ham ancha-muncha. “Bog` aro” to`plamiga kiritilgan muxammaslarni shu nuqtai nazardan tahlil qilardigan bo`lsak, unda quyidagi holatni ko`rish mumkin:

1. Navoiy g`azaliga bog`langan muxammas – 2 ta.
2. Jomiy g`azaliga bog`langan muxammas – 1 ta (fors-tojik tilida),
3. Fuzuliy g`azaliga bog`langan muxammas – 2 ta.
4. Amiriy g`azaliga bog`langan muxammas – 2 ta.
5. Furqat g`azaliga bog`langan muxammas – 2 ta.
6. Almaiy g`azaliga bog`langan muxammas – 1ta.
7. Muhayyir g`azaliga bog`langan muxammas – 1ta.
8. Nodim g`azaliga bog`langan muxammas – 1 ta.
9. G`oziy g`azaliga bog`langan muxammas – 1ta.
10. Nomiyy g`azaliga bog`langan muxammas – 1ta.
11. Umidiy g`azaliga bog`langan muxammas – 1ta.
12. Kamiy g`azaliga bog`langan muxammas – 1ta.

Qolganlari – 15 tasi mustaqil muxammaslardir. Bundan tashqari, shoirning she`riy maktublaridan 1 tasi – jiyani R.Do`stmatovga yo`llagan she`riy maktubi, hajviy asarlaridan 9 tasi, shuningdek, 1 ta ta`rixii muxammas janrida yaratilgan. Ushbu ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki, muxammas janri ham shoir ijodida salmoqli o`rinni egallaydi.

Ma`lumki, muxammas bog`lash yoki taxmis qoidasiga muvofiq muxammas bog`lanadigan g`azalning har baytini olib, uning butun uslubiy xususiyatlarini saqlagan holda (vazn, qofiya, radif, badiiy obrazlar), muxammas

bog`lovchi shoir unga yana uch misra qo`shadi, ya`ni g`azalning har baytidan besh misrali band hosil qiladi. Shu yo`l bilan g`azal necha baytdan iborat bo`lsa, shuncha bandlik muxammas hosil bo`ladi.

Taxmis bog`lashning qiyinligi shundaki, muxammas bog`lovchi shoir mavzu, uslub, vazn va boshqa badiiy usullardan cheklangan bo`ladi: u g`azal muallifining umumiy ruhini hisobga olishga, uning uslubiy xususiyatlarini saqlashga majbur. Muxammas bog`lashning yana bir mas`uliyati shundaki, muxammas bog`lovchi shoir san`at jihatidan tanlangan g`azaldan past bo`lmagan misralar yaratib, badiiy mahoratini namoyish qilishi kerak. Mumtoz adabiyotimizda muxammas bog`lashga o`zishuv, musobaqa, shoir uchun turli imtihon, deb qaraganlar. Mana shunday mas`uliyatli usulni Muqimiy qo`llab, muvaffaqiyatli chiqqan bir qancha muxammaslar yaratdi.

Muqimiy sharq mumtoz shoirlaridan bir umr o`rgandi, ularning asarlaridan ta`sirlandi va ularga ergashdi. Bu ta`sirni uning butun ijodida. Xususan, ularning g`azallariga yozgan taxmislaridan ham bilish mumkin.

Ko`p muxammas bog`lash – ko`p mutolaa qilishdan darak beradi. Demak, Muqimiy vaqt topdi, deguncha, ustozlar va zamondoshlarining asarlarini mutassil muta`olla qilgan va ularning o`ziga yoqqan, qalbini to`lqinlantirgan go`zal g`azallariga muxammaslar bog`lagan. Navoiyning “O`lturgusi”, “Qilmading”, “Kerak”, “Gul”; Fuzuliyning “Orzu”, “Vermaz”, “Etmazmidim”, “Sango”; Amiriyning “Qildi mujgoning”, “Xo`b bo`ldi”, “Muborak”, “SHirin”, “Qo`zg`olmasun”, Furqatning “Ko`zlaring”, “Tanholiging”, “CHiroylik”, “O`lturg`usi” radifli g`azallariga bog`langan muxammaslari buning yorqin dalilidir.

Muqimiyning Furqat g`azaliga bog`langan “Ko`zlaring” radifli muxammasining yaratilishi tasodifiy hol bo`lmay, shoirning muhabbat lirikasida ma`shuqa ko`zlari tasviri alohida ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi. Shoir lirik asarlarini tahlil qilishi jarayonida shu narsa ayonlashadiki, shoir alohida baytlardan tashqari, “Ko`zlaring”, “Aylar ko`zing” radifli g`azallar, “Qildi shaydo ko`zlaring” nomli murabba`, “Ko`zlaring”, “Ko`zlaring

shahlo nechun?” radifli muxammaslar ham yozgan. Ma’shuqa ko`zlarining hech kimga o`xshamagan, jozibali va betakror tasvirlarini yaratgan.

Muqimiy she’riyatida jonlanuvchi lirik qahramon aniq tarixiy davr, ijtimoiy muhit kishisidir. Bu qahramon o`sha muhit bilan chambarchas bog`langan bo`lib, o`z davrida yolg`iz emas edi.

*Kulbam aro qo`ydi bu dam, yuz shukr, ul barno qadam,
Maskanlarim, aylab karam, qildi gulistoni Eram¹.*

Kutgani tashrif qilganida kulbasini bog`i eramdek tasavvur qiluvchilar, boshqacha aytganda ko`ngil istagi yoki orzusi ushalganida o`z ko`nglini eram bug`ulistoniga his etguvchilar.

Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar toleim,

*Vojgundur imtihon qildimki, aksar toleim,² - deya o`z taqdiridan,
baxtsizligidan shikoyat qiluvchilar,
yoki*

Orzular g`unchasi hargiz ochilmas der edim,

Chiqdi hijron chillasi, keldi bahorim xayriyat³.

shodligidan entikuvchilar,

Kelur oxir seni ham yo`klagudek bir zamon yaxshi, -

deya kelajakka umid bilan qaraguvchilar yo`qmidi? Bor edi. Ular yuzlab, minglab topilar edi. O`z she’rlari bilan el, xalq deb atalmish ana shunday odamlarning dardu diliga yo`l topa olganligi lahzalik fursat bo`lsa-da, taskin bera olganligi hayotdagi muvaffaqiyati va shuhratining boisi edi. Shoir she’riyatiga nisbatan xos ana shunday shuhrat hozirda ham so`ngan emas. Ular hanuz she’rxon, hofiz va xonandalar tilidan tushmay, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Muqimiy she’rlari orasida **ta’rixlar** ham bor. “Bog` aro” to`plamiga kiritilgan ta’rixlar soni 4 ta. Muqimiy tabiatan hozirjavob kishi edi. Ko`plab

¹ Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent, 2010. 133-bet.

² Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent, 2009. 147-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 14-bet.

zamondoshlari singari o`zbek va tojik tilida baravar yoza olardi. Ko`pgina she`rlari o`zining yozilish tarixiga ega. Ta`rixlardan birinchisi 1895 yilda bo`lib o`tgan saylov xususida. Ushbu ta`rix muxammas shaklida bo`lib, Zavqiyning “Saylov” ta`rixiga taxmis tarzida bitilgan. She`rning oxirgi misrasidagi “Qozi Isfandiyor” jumlasini ta`rix moddasi bo`lib, undagi harflarning arab alifbosidagi qiymati yig`indisidan abjad hisobida 1313 adadi kelib chiqadi. Demak, mazkur saylov 1313-yil hijriyda bo`lib o`tgan. Uni melodiya aylantirsak, 1895 yil sanasi kelib chiqadi.

Ma`lum munosabat bilan yozilgan she`rlari orasida Toshkent noibi vafotiga bag`ishlangan (“Tarixi favti noibi Toshkandiy”) besh baytlik tojikcha ta`rix-marsiyasi bor. “Noibi Toshkandiy” 1892-yildagi Toshkent qo`zg`olonining tashkilotchilaridan va faol ishtirokchilaridan Ino`omxo`ja¹ bo`ladi. Ino`omxo`ja Umuryoxo`ja o`g`li Muqimiyning toshkentlik do`stlaridan bo`lib, 1892-yili Toshkentda bo`lgan xalq qo`zg`olonida ishtirok etgani uchun qo`zg`olonning boshqa ishtirokchilar (ular 60 kishi) bilan birga Turkiston harbiy okrug sudi uni 1892 yil 10 dekabrda Irkutsk guberniyasiga 4 yil muddatga surgun qilgan edi. Biroq u kasalmandligi tufayli oradan 3 yil o`tgandan so`ng Irkutsk surguni Qo`qon bilan almashtiriladi va Ino`omxo`ja 1896 yilda Qo`qonga surgun qilinadi. Lekin u Qo`qonda uzoq yashamaydi. 1897-yilning 3-fevralida shu yerda vafot etadi. Muqimiy uning vafoti ta`rixini abjad hisobida quyidagi baytda ifoda etgan:

Sar zi hayrat barkashidu guft aql:

“Xojai In`om, sad afsus, murd”².

Bu baytdagi ikkinchi misradan abjad hisobida 1322 kelib chiqadi. Birinchi misradagi “hayrat” so`zining bosh harfi “h”ning qiymati 8 raqamini 1322 dan

¹ Ino`omxo`ja Umuryoxo`jayev (1833-1897) asli qo`qonlik, savdo ishlari bilan Toshkentga kelib, yashab qolgan. Zanjirlik mahallasi qariyalari uni yoqtirishib, Shayxontohur daha oqsoqoligiga saylaydilar. Biroq uning dadilligi chor ma`murlariga yoqmaydi va ishdan chetlatiladi. Ammo xalq uni 1880-yili yana qo`llab chiqadi va shahar oqsoqoligiga saylaydi.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 215-bet.

chiqarib tashlasak, 1314 qoladi. Bu – hijriy hisob bilan In'omxo`ja vafot etgan yil. Uni melodiya aylantirsak, 1897 yil sanasi hosil bo`ladi.

Ta'rix-marsiyada shoirning rus siyosatiga qarshi bosh ko`targan qahramonga mehr-muhabbati ochiq ifodalanadi. “Garchi hibsdan g`urbatdan qon yig`lasa-da, oqibat shahid bo`ldi. Uning vafoti kuni aziz-avom, katta-kichik butun Xo`qand xalqi motam tutdi”,- deyiladi marsiyada. Muqimiy In'omxo`ja mashaqqatlariga o`zini hamdard tutadi. Shoir fikricha, In'omxo`ja o`lgan emas, u shahiddir. U hayotga shunchaki kelib-ketgan emas, juda katta ish qilgan. Shu sababli, u el-yurtning mehriga, muhabbatiga musharraf bo`lgan. Shuning uchun ham uning o`lamiga butun Xo`qand aza tutdi.

Afsuski, Muqimiy 1898-yilgi Dukchi Eshon boshchiligidagi xalq ozodlik harakatini mana shunday teran anglay olmadi. Rus hukumatining rasmiy talqini izidan borib, hajviyalar bitdi.

Uchinchi ta'rix qit'a shaklida bitilgan. Toshkent shahrining Darxon mahallasida istiqomat qilgan Mirzo Ubaydulloy degan kishi bir g`ishtlik masjid qurib, unga Muqimiydan ta'rix yozib berishni iltimos qiladi. She'ning to`rtinchi misrasidagi “Ibodatxonai oliy” jumlasini ta'rix moddasi bo`lib, undan abjad hisobida 1318-hijriy sanasi kelib chiqadi. Uni melodiya aylantirsak, 1890-yil sanasi hosil bo`ladi.

To`rtinchi ta'rix Andijon shahrida ro`y bergan dahshatli zilzila ta'rixiga bag`ishlangan. 27 baytdan iborat bo`lgan ushbu ta'rix masnaviy shaklida yaratilgan. Unda 1902-yilning 16-dekabrida Andijonda ro`y bergan zilzilaning dahshatli oqibatlari, xalq boshiga tushgan ofatlar, ularga berilgan yordam haqida so`z boradi. Shahar lahzada vayronaga aylanib, 4652 kishi halok bo`ladi. Shoir bundan qattiq larzaga tushadi. Shaharga borib ofat oqibatlarini o`z ko`zi bilan ko`radi va iztirob to`la ta'rix-marsiya bitadi.

Shoir fojia manzaralarini ro`yrost tasvir etar ekan, sabablarini, o`z aqidasi bilan bog`laydi, ayrim odamlarning buzilishidan ko`radi. She'r shoir o`limidan bir oy oldin “Turkiston viloyatining gazetisi”da bosilgan edi. She'ning oxirgi baytidagi ikkinchi misrada keltirilgan “darih

Andijon” jumlasini ta’rix moddasi bo’lib, uning abjad hisobidagi qiymati 1323 ga teng undan baytning birinchi misrasidagi ishoraga ko’ra, “jon” so’zining “boshi”, ya’ni “jim” harfining qiymati bo’lmish 3 raqami chiqarib tashlansa, 1320 hijriy sanasi hosil bo’ladi. Uni melodiya aylantirsak, 1902-yil kelib chiqadi. Demak, Andijonda bo’lgan dahshatli zilzila 1902-yilda ro’y bergan.

SHoirning ilg’or dunyoqarashi, farovon hayot va ozod jamiyat, nsaf va adolat, barkamol inson va insoniylik, iymon va e’tiqod va erk haqidagi orzu-intilishlari bilan mustamlaka sharoiti, mavjud adolatsiz tuzum, zo’ravonlik hukmronlik qilgan qilgan zamona o’rtasidagi jiddiy ziddiyat, bir so’z bilan aytganda, yuksak ideal bilan razil borliq o’rtasidagi nomutanosiblik Muqimiy ijodida voqeylikka nisbatan keskin tanqidiy munosabatning uzil-kesil shakllanishiga olib keldi.

XIX asrning 90-yillariga kelib, shoir davr adabiyotidagi kuchli tanqidiy yo’nalishning yetakchisiga aylandi. Hayotni, borliqni haqqoniy tasvirlashni ijodda asosiy mezon qilib olgan shoir, ayni zamonda, qalam ahlini xalqchil mavzular topishga, omma dili va intilishiga mos – “xalq tolib” asarlar yaratishga da’vat etadi. Muqimiy ijodiy merosining asosiy qismi ana shu yillarda yaratilgan. Shoir bu davrda lirika sohasida o’z ijodini davom ettirib, mumtoz poeziyaning ajoyib, jo’shqin nimaunalarini hisoblangan she’rlarini yaratdi. Uning tanqidiy, norozilik va shikoyat ruhda yozgan she’rlari, ayniqsa, unumli va barakali bo’ldi. “Muqimiy 19 asrning ikkinchi yarmida adabiyotda satirik maktab yaratdi”¹. Furqat, Zavqiy, muhayyir, Nisbat, Nusrat, Zoriy va boshqa shoirlar Muqimiy atrofiga uyushib, ajoyiyu yuoy tanqidiy adabiyot yaratdilar. O’zbek adabiyotida hech qachon XIX asrning ikkinchi yarmidan avval va undan keyin ham Muqimiy bosh bo’lgan Farg’ona shoirlari yaratgandek boy va o’tkir satirik adabiyot bo’lgan emas.

¹ Karimov G. Muhammad Aminxo’ja Muqimiy // Muqimiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1960. 14-bet.

II BOB. Muqimiy she'riyatida norozilik g'oyalarning talqini

Mumtoz adabiyotimiz – ulkan bir xazina. Istiqlol sharofati bilan ana shu merosni o'rganish, undan kishilarning ma'naviy olamini boyitishda oqilona foydalanishga harakat qilinmoqda. Xalqning rostgo'y shoiri XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri Muqimiydir. U yaratgan asarlar xalqimizning chor mustamlakasi davridagi og'ir hayoti manzaralarini o'zida mujassam etgan. So'ngra, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qondagi Hokimoyim madrasasida va Buxoro madrasalarida tahsil olib, arab, fors tillarini chuqur o'zlashtirdi. U xattotlikka ham qiziqib, qo'qonlik mashhur xattot Muhammad Yusuf qilqalamdan husnixatni o'rgandi. Muhammad Aminxo'ja 15 – 16 yoshlaridan boshlab “Muqimiy” taxallusida she'rlar yoza boshladi. Muqimiy yigirma besh, yigirma olti yoshlaridayoq Qo'qon va uning atroflarida taniqli shoir sifatida el og'ziga tushdi. Afsuski, ayni shu davrda yurtimiz chor mustamlakasi asoratiga tushib qoldi. Siyosiy-ijtimoiy hayotdagi bu tanazzul, shubhasiz, ma'naviy hayotga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Kishilarning o'z din-u shariatidan tobora uzoqlashishi oqibatida jamiyatda munofiqlik, yulg'ichlik va poraxo'rlik kabi illatlar urchidi. Kambag'al odamning gapi hech kimga o'tmaydigan zamonda Muqimiy yashashga, ijod qilishga majbur bo'ldi. Muqimiy bir necha muddat Qo'qondagi yer o'lchash boshqarmasida ishlagan vaqtida bu ahvolni o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bu uning “Tanobchilar” she'rida ham aks etgan. Atrofdagi yuz berayotgan nohaqliklar, fojialar shoir qalamining yanada o'tkirroq, keskinroq bo'lishiga olib keldi. Muqimiy xalq dardu quvonchlarini o'z asarlarida ifoda eta olgani uchun ham el o'rtasida mashhur bo'lib ketdi. Bir muxammasida shoir shunday deb yozgandi:

Kettilar hasrat bilan mardum yig'ib dunyo, darig',

Hirsu g'aflat pardasi bosib, bo'lib a'mo, darig',

Dahrdin bir olihimmat bo'lmadi paydo, darig',

Johu qudrat birla xok o`ldi g`aniylar, vo darig`,

Xayru ehsonin ko`rolmay benavolardin biri.

Adabiyotshunos olim A.Abdug`afurov shoir she`rlari haqida fikr yuritar ekan, shunday deydi: “Shoirning ilg`or dunyoqarashi, faravon hayot va ozod jamiyat, insof va adolat, barkamol inson va insoniylik, iymon-e`tiqod va erk haqidagi orzu-intilishlari bilan mustamlaka sharoiti, mavjud adolatsiz tuzum, zo`ravonlik hukmron bo`lgan zamon o`rtasidagi jiddiy ziddiyat, bir so`z bilan aytganda, yuksak ideal bilan razil borliq o`rtasidagi nomutanosiblik Muqimiy ijodida voqeilikka nisbatan keskin tanqidiy munosabatning uzil-kesil shakllanishiga olib keldi”¹. Yuqoridagi faslda qayd etilganidek, Muqimiyning 2010-yilda nashr etilgan “Bog` aro” she`rlar to`plamidagi g`azallarning umumiy soni 151 ta bo`lib, shulardan 27 tasi hajviy g`azallarni tashkil etadi. SHoirning ushbu to`plamga kiritilgan 124 ta g`azalini mavzu jihatdan o`rganar ekanmiz, ularning asosiy qismini ishq-muhabbat mavzusidagi g`azallar tashkil etishi bilan birga norozilik va shikoyat ohanglari bilan yo`g`rilgan she`rlar ham borligi diqqatimizni tortdi. Shoir she`rlarida davrdan, mashaqqatli turmushdan, og`ir taqdiru zabun toledan shikoyat, munisu hamdard yo`qligidan nolish ohanglari keng o`rin tutadi. Shuning uchun ham shoir she`riyatini norozilik g`oyalarining tasvirlanishi nuqtayi nazaridan o`rganar ekanmiz, ularni quyidagicha tasnif qilishga harakat qildik:

1. Davrdan, mavjud tuzumdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar.
2. Mashaqqatli hayot, og`ir turmushdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar.
3. Yaqin do`st, hamdard yo`qligidan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar.
4. Sevikli yorning vafosiziligi va mehirsizligidan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar.

¹ Abdug`afurov A. Muqimiy // Ma`nviyat yulduzlari. Toshkent, 2001. 356-bet.

1. Davrdan, mavjud tuzumdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar

“Muqimiy haqgo`y shoir edi. U davr dardlariga qulog`ini kar, zamon muammolariga ko`zini ko`r qilib yasholmadi. U butun vujudi bilan ko`z bo`lib, davrining ayanchli manzaralarini kuzatdi, butun jismi quloqqa aylanib, xalqining nola-faryodini tingladi. Ulkan bir yurakka do`nib, odamlar qalbini his etdi va qaynoq ilhom bulog`i bo`lib qog`ozga yog`ildi – evrilayotgan zamon surati, ayniyotgan jamiyat qiyofasi, ikki yoqlama zulm ostida ezilgan xalq qismati shoir asarlarida bor bo`yi bilan namoyon bo`ldi”¹. Haqiqatdan ham, shoirning dard, alam va iztirob iskanjasida aytgan quyidagi misrlari bejiz emas edi:

*Gar qilich kelsa boshimga ham degayman rostin,
So`zki haq bo`lsa, savolimga javobim kim desun?!*

O`z zamonining taniqli shoir bo`lgan Muqimiy “Mening xor bo`lishimga sabab Farg`ona mardumi bo`lganimda, o`z vatanimni sevganimda”, - deb arz qildi. Xalqimizda “oldingda oqqan suvning qadri yo`q” degan maqol bor. Muqimiy hayotning azaliy va abadiy haqiqatini, tiriklikning eng buyuk mantig`ini, inson turmushining eng achchiq mazmun-mohiyatini ana shu eng oddiy so`zlar bilan oddiy usulda ifoda etadi:

*Mulki Hindu marvdin kelsam, topardim e`tibor,
Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg`onaman.*

*Kimga dod aylay borib shum toleimning dastidan,
Ko`za sindirgan azizu, suv keltirgan xorman.*

Ushbu misralarda katta iste`dod va iqtidor egasi bo`lsa-da, “mardumi Farg`ona” – mahalliy aholi vakili bo`lganligi uchun e`tibor ko`rmayotganligi, uzoq o`lkalardan kelib, katta qobiliyat egalarining yo`liga g`ov bo`layotganlar kinoya bilan qalamga olingan.

¹ Ochilov E. O`zbek xalqining mo``tabar shoiri // Muqimiy. Ko`nglim sandadur. Toshkent, 2009. 11-bet.

Lekin shunga qaramasdan Muqimiy o`z vatanini, uning aziz va muqaddas tuprog`ini sevar edi. Shuncha xorlik va zorliklarga qaramasdan, u o`z vatanini tashlab ketolmadi, to o`lguncha uning sodiq farzandi bo`lib qoldi:

Necha dermanki, Muqimiy, g`urbat aylay ixtiyor,

Bir vatandin dil uzib g`ayrat qilolmay dog`man.

XIX asrning 90-yillariga kelib shoir davr adabiyotidagi kuchli tanqidiy-satirik yo`nalishning yetakchisiga aylandi. Hayotni, borliqni haqqoniy tasvirlashni ijodda asosiy mezon deb qabul qilgan shoir, ayni zamonda, qalam ahlini xalqchil mavzularni topishga, omma dili va intilishiga mos – “xalq tolib” asarlar yaratishga da`vat etdi. Bu mezon va da`vat quyidagi misrlarda o`z ifodasini topgan:

..She`ringizga xalq tolib o`lsalar so`ngra o`qung!

Muqimiyning eng sara lirik she`rlaridan biri “Navbahor”dir. “Navbahor” - yangi bahor degani. U – uyg`onish fasli. Borliqning, mavjudotning eng sara fasli. U tiriklik nishonasi, tabiatning uzoq, rutubatli qishdan keyingi qayta jonlanishi. Ana, qorlar ko`tarilib, yerning issiq nafasi tuproqlar orasidan ko`kka o`rlyadi. Qushlar chug`uri tinmaydi, qaldirg`ochlar tikka ko`tariladi. Chor atrof yashillik bilan qoplanadi. Shoir bu manzaradan tunganmas zavq-shavq oladi. Tiriklikning naqadar ulug` ne`mat ekanligini anglaydi. Unda hayotga so`ngsiz ishtiyoq uyg`onadi. Eng muhimi, chinakam umr odamlardan uzoqda kechiriladigan uzlatnishinlik emas, do`stlar bilan to`lib-toshib, yonib-jo`shib yashamoq ekan:

Navbahor! Ochildi gullar, sabza bo`ldi bog`lar!

Suhbat aylaylik, kelinglar, jo`ralar, o`rtog`lar!

Xush bu mahfillda tiriklik ulfatu ahhob ila!

O`ynashib, gohe tabiatni qilaylik chog`lar!...¹

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 18-bet.

Lekin, afsuski zamona-yomonniki. Aqlli, dono kishilar (“ahli tamiz”) oyoq ostida, bulbul o`rnini qarg`a (zog`)lar olgan:

*Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog`lar.*

Muqimiy qalami o`tkir, salohiyati yuksak, mahorati yetuk zabardast shoirdir. U bulbul o`rnini zog` egallab, fazl ahli hamisha xor ekanligi haqidagi qadim zamondan davom etib kelayotgan, abadgacha davom etadigan achchiq hayotiy haqiqat – tiriklik mantig`ini sodda va samimiy misralarda oddiy tashbeh-u timsollar vositasida ifoda etgan yuqoridagi bayti mumtoz she`riyatdagi manaman degan shohbaytlar bilan bellasha oladi.

Mazkur baytning davomi bo`lib kelgan malham istab, birovga bag`ringni ko`rsatsang, chora qilmagani yetmaganiday, tirnog`i bilan tirnab, uni battar og`ritadi, mazmunidagi quyidagi baytini ham qavat-qavat ma`no qirralariga egaligi va badiiy salmog`iga ko`ra bemalol shohbaytlar sirasiga kiritish mumkin:

*Marham istab kimsadin, zaxmi dil izhor aylasang,
Chorai qilmoqdin o`zga, ustig`a tirnog`lar.*

Shoir kutilmaganda gapni mana shunday jamiyat hayotiga buradi va unga o`z munosabatini bildiradi. Agar zamona adolatli bo`lsa, har kim o`ziga munosib joyda bo`lmog`i lozim edi. Holbuki unday emas. Shoirning e`tirozi shunda.

Muqimiyning o`nlab oshiqona g`azallari orasida davrdan, mavjud tuzumdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan misralar, baytlar bor.

Ammo ko`rinishidan oshiqona ruhda yaratilganday bo`lib ko`rinuvchi, aslida esa kuchli norozilik va isyon ruhida yaratilgan quyidagi g`azal shoirning mavjud tuzum va adolatsiz jamiyat, uning ustunlari, qonun-qoidalaridan noroziligi aks ettirilgan g`azallar sirasiga kiradi:

*Zulm ila qahru g`azab izhor qilmoq shunchalar,
Oshiqi bechoraga ozor qilmoq shunchalar.*

*Gul debon sevgan kishining ko`kragiga nish urub,
Xastayu ma`yus etib, afgor qilmoq shunchalar.*

*To`tiyi shirinsuxan ag`yorlarning bazmida,
Bizga kelganda gapirmay zor qilmoq shunchalar.*

*Sizga kim aytdi: “Muhabbat ahlini qil ihtisob”,
Qo`rqo`tib, o`z aybiga iqror qilmoq shunchalar.*

*Kelsa oldingizga boysurat, yoqosi tugmalik,
Izzat ila shodu minnatdor qilmoq shunchalar.*

*Garchi kelsa eski to`n, bizdek duogo`yi faqir,
Kambag`alning xirqasidin or qilmoq shunchalar.*

*Har balo jabr kelsa yonmagay hargiz Muqim,
Oshiq ahlini urubon xor qilmoq shunchalar¹.*

Ushbu g`azalning, ayniqsa, beshinchi va oltinchi baytlarida ijtimoiy hayot va undagi munosabatlardan kuchli norozilik kayfiyatlari aks ettirilgan. Muqimiy yashagan zamonda yevropa uslubida “yoqosi tugmalik” ko`ylaklar kiyish urf bo`la boshlagan, to`g`rirog`i, rus mustamlakachilari va ularning malaylari ana shu uslubda kiyinishni odat qilgan edilar. Shuning uchun ham mahaliy amaldorlar “eski to`n”li mahalliy aholiga emas, ko`proq “boysurat, yoqosi tugmalik” kishilarga xizmat qilar, ularning hojatini chiqarishga harakat qilar, mehnatkash aholi esa soatlab, kunlab o`z mushkullarini hal qilolmay ovora-yu sarson edilar. Bunday keskin munosabatlarni qalamga olish albatta, shoirdan kuchli irodani talab qilar edi. Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmron adolatsizlik kabi juda jiddiy masalalar shoir she`riyatida tahlil etildiki, bular Muqimiy she`riyatining siyosiy yo`nalishi va g`oyaviy kamolotidan darak beradi. Shoir bir she`rida shunday yozadi:

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 19-bet.

Qachon kambag`alning so`zi o`z tar?

Agar bo`lsa aqchang – so`zing zulfiqor,¹

Bu keskin xulosali misralar hukmron adolatsiz tuzumga berilgan qat`iy aybnoma bo`lib jaranglaydi.

Dahr zulmidin sirishki tinmay oqib aylanur,

Charx javridin boshida osiyo deb axtaring².

Ushbu misralarda lirik qahramon “*dahr zulmi*” iskanjasida qolganligini, tinimsiz ko`z yoshi (sirishk) to`kishini, “*charx javri*” esa boshida tegirmon toshi yurgizishini ta`kidlaydi.

Toliyem shum, vojgun baxtu g`izosi dardi g`am,

Notavon mo`ri zaifdin benavo deb axtaring³.

Ba`zi o`rinlarda lirik qahramon o`zini “*mo`ri zaif*” (zaif chumoli)dan ham ojiz ekanligini qayd etadi. Bunday qat`iy qarorga kelish sabablari esa, albatta, tolening shumligi, baxtiqoralik, dardu g`amning nihoyatda ortiqligi bilan belgilanadi.

Muqimiy g`azallaridagi hokim ruh norozilik ruhi, alam va faryod ruhi edi. Bunday g`azallarda shior bilan uni o`rab turgan hokim muhit o`rtasidagi qarama-qarshilik, ziddiyat, mavjud tartibdan norozilik yorqin aks etgan. Muqimiy bu muhitda yakka va yolg`iz qoldirilgan edi. U shuning uchun ham “qorong`udir laylim kibi nahorim” (kunim ham tunim kabi qorong`udir) deydi:

Fig`onu ming fig`on bu charx kajraftor dastidin,

Vafobozu jafo andishai makkor dastidin,

Sipehri bemuruvvat, zolimu g`addor dastidin,⁴

Ki iru zulmidin jonu dilim behad yaro bo`ldi⁵.

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 35-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 78-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 78-bet.

⁴ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 174-bet.

⁵ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 215-bet.

Muqimiy o`zining ijtimoiy mazmundagi g`azallarida hokim tabaqadan uzoq ekanini va “ulug`lar”ga faqat xushomadlargina yaqin va do`st ekanini yozadi:

*O`zgalarga xulqu xush, ammo menga badxo`ylar,
Hamnishindirlar ululg`larga xushomadgo`ylar¹.*

Muqimiyning Davrdan, mavjud tuzumdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan qarashlari butun boshli she`rlardagina emas, balqi mavzu jihatidan oshiqona, sevgi-muhabbat mavsidagi g`azallarda ham alohida bayt doirasida aks ettirilgan. Bunday misllarni shoir she`rlari orasidan ko`plab keltirish mumkin masalan:

*CHekib javru jafolar, sho`xlardin kammu ta`o`irim
Ki, yakbora osarg`a begunoh dor aylading sen ham².*

Eshikingda borib faryodu dod etsam iloji yo`q...³

*Umid etmak esang tongla jannat ul-ma`vo,
Baloga sabr-u, qazoga nizo bila boramiz⁴.*

Bunday misra va baytlari shoir asarlaridan ko`plab keltirish mumkin.

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 21-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 90-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 77-bet.

⁴ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 43-bet.

2. Mashaqqatli hayot, og`ir turmushdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar

Shoirning ko`pgina g`azallarida uning hayoti bilan bog`liq lavhalar aks etgan.

*Yor ila ne xush zamoni ro`zgorim bor edi,
Podsholik davlatidin hamki orim bor edi,-*

matlai bilan boshlanadigan g`azal shundaylardan. She`rda boshdan-oxir yor bilan kechgan kunlarni qo`msash hukmron. Bu, ehtimol, ma`shuqadur. Ehtimol, biror do`stdir. Balki oilasi-xotini Ziyodabibi va o`g`li Akbarxo`ja bilan birga kechirgan kunlardir.

Shoirning yana bir she`ri:

*Podshoh yo`qlatsalar, nogah gado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro deb axtaring,¹ -*

matlai bilan boshlanadi. Undan Muqimiyning qandaydir bir “ish”da ayblanib, ta`qib etilgani anglashiladi. Umuman olganda, shoirning katta-kichik amaldorlar bilan aloqasi yaxshi bo`lgan emas. Shaxsiy hayotidagi omadsizlik, hukumat xizmatida chiqishib ishlab keta olmasligi, oqibatda turmushning nochor bir holga tushishi, Hazrat madrasasida g`aribona va so`qqabosh hayot kechirishga majbur bo`lishi “Toleim” she`rida ta`sirchan aks etgan:

*Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar toleim,
Vojgunldur imtihon qildimki, aksar toleim...*

*Yuz tarafdin yetkurub, gardi kudurat zangi g`am,
Aylagay oinai tab`im mukaddar1 toleim.*

*Har necha qilsam tavallo-zori qilmas iltifot,
Ro`ygardon teskari, tobora badtar toleim.*

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 78-bet.

*Ro`zgorim tiyra, iqbolim zabun, baxtim qaro,
Bo`lsa ravshan, bormukin tadbiri diygar toleim?*

*Nogahon bersam, Muqimiy, bir musulmong`a salom,
Daf`atan ikki qulog`ini qilur kar, toleim¹.*

Ushbu g`azalda shoir ters taqdiri, og`ir hayoti, baxtsiz turmushidan nolib, hasratidan chang chiqadi. Muqimiy og`ir qismati, mashaqqatli kunlaridan nolir ekan, o`zining yetti boshli ajdarning luqmasi bo`lganini mana bunday alamli misralarda ifoda etadi:

Ajdari g`am komiga mat`umdurmen ayrilib.

Shoirning alamu iztirob bilan: “Dunyo – sahroi junun”, “Dunyo – qurulg`on dor ekan” deyishlari ham bejiz emas.

Yana bir she`rida yozadi:

*Ketardim bosh olib, gar bo`lsa erdi, ro`zgorim yo`q,
Netay bezodu to`sha yo`lga yurmakka madorim yo`q.
Turarga qolmadi toqat, ko`ngulda ixtiyorim yo`q,
O`zingdan o`zga, yo rab, rahbari laylu nahorim yo`q.
Hidoyat aylagaymu deb Muqiming intizor o`lmish².*

Ota-onasi vafot etib, xotini bilan ajrashib, yolg`iz o`g`lidan judo bo`lganidan keyin Muqimiy “Hazrat” madrasasidan kichik bir hujra olib, shu yerga ko`chib o`tadi. “Tazkirai Qayumiy”da keltirilgan ma`lumotlarga qaraganda, xalq orasida shuhrati baland bo`lishiga qaramay, Muqimiy bir umr faqirlikda yashagan. O`z davrining fozil kishisi ekani, xushxat xattot, tahriri mukammal bo`lganidan imom, mutavalliy, hatto qozi bo`lib ishlashi mumkin bo`lgani holda bu ishlarni xohlamagan, xattotlik va xatnavislik qilib kun kechirgan³. Shoir faoliyati haqida ma`lumot berar ekan, G`afur G`ulom quyidagi fikrlarni qayd etadi: “Uning ko`pincha hujralarda g`azallar yozib, xat mashq qilib, kitoblar o`qib o`tirganini ko`rish mumkin edi. Bo`sh vaqtlarida Qo`qon,

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 97-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 244-bet.

³ Tazkirai Qayyumiy. 1-kitob. Toshkent, 1998. 212-bet.

Andijon, Namangan, Toshkent tarafdarda aylanib yurar edi. U xatni rasm darajasida go`zal yozar edi. Forscha-arabchani mukammal bilardi¹.

Yana bir ma'lumot. Moskvadagi jiyani R. Do'stmatovga xatidan: "Bechorachilik, Podsholik madrasalarimizni(ng) vaqfini olib qo`ygan, hech bir tarafdin daromad-daxl yo`q, qashshoqliq". Ilgari madrasalarning sarfu xarajatini ta'minlab turish uchun vaqf (er, mulk) ajratilgan. Rusiya Turkistonni bosib olgach, shularni olib qo`ydi. Madrasalarning ta'minoti buzilib, birin-ketin yopila boshladi. Ayniqsa, madrasalarda istiqomat qiluvchilar qiyin kunda qoldilar. Muqimiyning o`z taqdiri va tirikchiligidan zorlanish sabablaridan biri – shu. Uzoq muddat davom etgan iqtisodiy tanglik. Og`ir turmush sharoiti shoirning sog`ligiga jiddiy putur yetkazadi. U tez-tez kasallanib qoladigan bo`ladi. Furqatga yozgan masnaviy-maktubida qo`l og`riq ustiga bel og`riq qo`shilgani, dard zo`ridan tuni bilan mijja qoqmay chiqishini qistirib o`tadi:

*Agar so`rasangiz ahvolimni shul kun,
Qo`l og`riq ustiga dardi miyonlar.*

*Bu ranjim shiddatidin gar desam, yo`q,
Ko`zimda uyqu to vaqti azonlar.*

Bu bilan kifoyalanmay, falak kimga jafu tig`ini otsa, aybdor shu deb meni nishonga oladi, deydi:

*Falak tir jafu har kimga otsa,
Meni aylar "O`shal – shul!" deb nishonlar.*

Masnaviy-maktubni agar hasratim qog`ozni kuydursa, uni qanday qilib bayon-u tahrir aylay, degan firka bilan yakunlaydi:

*Muqimiy, hasratim kuydursa qog`oz,
Nachuk tahrir etib, aylay bayonlar.*

Furqat maktubiga javob yozishining kechikishiga boshqa bir masnaviysida uch-to`rt oy bemor yotganini sabab qilib ko`rsatadi:

¹ G`afur G`ulom. Muqimiy // Asarlar. 10 jildlik. 8-jild. Toshkent, 1976. 31-bet.

*Tarki payg`om o`lganga, ey birodarlar, sabab -
Munda bo`ldim muddati uch-to`rt oy bemor man¹.*

Adabiyotshunos olim E.Ochilov ta`kidlaganidek, “Shu maktubda o`zining qanchalik nochor ahvolda ekanligini tong otsa, g`am yeb, ro`za tutaman, kun botsa, qayg`u bilan iftorlik qilaman, mazmunidagi baytida obrazli tarzda ifoda etadi”². Mana o`sha bayt:

*Har sahar g`am yeb tutarman bu mahallar ro`zani,
Shom bo`lsa, aylaram mehnat bilan iftor man.*

“Turkiston viloyati gazetisi” sahafalarida 1903 yilning yanvar va aprelda e`lon qilingan “Xo`qanlik bir boyning sha`niga Muqimiy shoirning aytqon she`ridur” va dahshatli Andijon zilzilasi munosabati bilan yozilgan she`r-ta`rixi shoirning ijtimoiy mavzudagi so`nggi yirik asarlari jumlasiga kiradi.

*Ey tabib, aylanma, dardim bedavolardin biri,
Rangi zardim, ko`ru ko`rma, qahrabolardin biri³–*

misralari bilan boshlanuvchi muxammasda esa shoir hayotining so`nggi damlaridagi ruhiy kayfiyati ta`sirchan ifodasini topgan. Keltirilgan misralarda shoirning sariq kasaliga giriftor bo`lganligiga ishora bor. Xuddi shu dardi 1903-yil 25-mayda uni bu olamdan olib ketdi.

Muqimiyning oshiqona mazmundagi she`rlari orasida ham mashaqqatli hayotdan, moddiy qiyinchiliklardan shikoyat ohanglari bilan yangraydigan misralar uchrab turadi. Bunday o`rinlador shoir lirik qahramoning ruhiy holatini bayot etar ekan, o`rni-o`rni bilan o`z shaxsiy hayotidagi ahvolni ham qistirib o`tishga harakat qiladi. Masalan, “Ayrilmasun” radifli quyidagi muxammasda shoir yordan ayriliq, hijron va sog`inch iztiroblari aks ettirilgan bo`lsa-da, muxammasning ayrim o`rinlarida mashaqqatli hayot, og`ir turmushdan norozilik tuyg`ularini ham aks ettiradi:

Kimga aytib, kimga yig`lay mubtaloliq dardini,

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 87-bet.

² Ochilov E. O`zbek xalqining mo`tabar shoiri // Muqimiy. Ko`nglim sandadur. Toshkent, 2009. 11-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 25-bet.

*Olami qahhatchilikda benavoliq dardini,
Oh, sargardon kezib, berahnamoliq dardini,
Do`stlar, ko`rsatmasun hargiz judolig` dardini,
Dushmaning ham bo`lsa, o`z g`amxoridan ayrilmasun¹*

SHoir muxammaslarini o`rganar ekanmiz, 6 bandli “Jonim” radifli muxammas e`tiborimizni tortdi. SHoirning ushbu muxammasi uning hasbi holi yanglig` taassurot qoldiradi:

*Falakdin rohat izlab kom hosil qilmagan jonim,
Jahonning ayshidin bir dam ko`ngul shod etmagan jonim,
G`ami ayyomidin bir lahza forig` bo`lmagan jonim,
Malohat dog`i tig`i xalqdin ayrilmagan jonim,
Jafo chekkan, alam tortgan, halovat ko`rmagan jonim².*

Ayon bo`layotirki, muxammasning asosiy mavzusi lirik qahramoning ruhiy holati, moddiy ahvoli, dunyoga kelishdan asosiy maqsadi, orzu-intilishlarining armonga aylanganligidan norozilik tuyg`ularidir. SHE`rning barcha bandlarida ana shu ohang ustunlik qiladi. Lirik qahramon inson bo`lib yaratilganligidan isyon ko`taradi, “shum tolei”dan shikoyat qiladi, o`zini “g`ariblarning g`aribi, muhtalolar muhtalosi” deb ataydi. Quyidagi misralarni o`qiganda o`quvchida gap shoirning shaxsiy hayoti haqida ketayotgandek tasavvur paydo bo`ladi:

*Yoshi o`ttuzga yetmay bori qayg`udin qaribdurman,
Bu mehnatxonada chun ustuxonim oqaribdurman,
Ne chora shahrida bir bevatan qolgan g`aribdurman...*

Muxammasning ayrim o`rinlarida tushkunlik kayfiyati lirik qahramonni chulg`ab oladi:

*Na bulbuldek bari gul shoxidin o`zga makonim yo`q,
Magar mehnat chekib, rohat ko`rorimga gumonim yo`q.*

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 208-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 200-bet.

3. Yaqin do'st, hamdard yo'qligidan norozilik tuyg'ulari aks ettirilgan she'rlar

Muqimiy yashagan davrda adabiy o'qimlar o'rtasida ham keskin siyosiy va mafkuraviy kurashlar avj olgan edi. Shuning uchun ham shoir ba'zi laganbardor ijodkorlar bilan unchalik chiqisha olmaydi. G'ulom Karimovning ma'lumot berishicha, 1886-yilda qo'qonlik shoir Muhyiy "Qasidaast, dar shikoyati hamoqati ahli zamona" ("Zamona ahlining nodonliklaridan shikoyat tarzida aytilgan qasida") sarlavhali katta asarini yozadi. Bu asarida Muhyiy Muqimiy va uning atrofidagi ko'pgina shoirlarni obro'sizlantirishga, ularning ishiga raxna solishga harakat qiladi, ularni "omi, chapani shoirlar, shumlar, oyoq yalang, bosh yalang bezorilar" deb haqorat qilishgacha borib yetadi. Muqimiy esa o'ziga xos kamtarlik bilan Muhyiy ta'nalariga javob berib, kelgusi "yaxshi zamonlar"dan umid kutadi:

*Muqimiy ta'naiy Muhyiyga bir so'z aytki rost bo'lsin,
Kelur oxir seni ham yo'qlagudek bir zamon yaxshi¹.*

Shuningdek, shoirning "Hoji afandi" – Muhyiyga qarata yozgan "Inson bo'ldimu?" sarlavhali she'ri ham bor bo'lib, u Muqimiyning yuksak zavqidan darak beradi:

*Ilm o'qigani bilan har kim musulmon bo'ldimu?
Mouman aylab farishta g'ayri shayton bo'ldimu?*

*Shikvalar aylab tuz ichkon yerlaringizni mudom,
Yomagar posi namak tutmog'liq oson bo'ldimu?*

*She'ringizga xalq tolib bo'lsalar, so'ngra o'qing,
Yo kelib ahbob kar bo'lmoqqa mehmon bo'ldimu?*

¹ Muqimiy. Bog' aro. Toshkent, 2010. 215-bet.

*Kimki, muhmaldur o`zi ham, o`zgani muhmal bilur,
Qilsangiz g`ayra atoye derki ehson bo`ldimu?*

*Buzda rish, eshshakda jon, to`ti gapurgoni bilan,
Ey afandim, sizga ul, albatta, inson bo`ldimu?¹*

Muqimiy she`rlari orasida yaxshi do`st topish, dilga yaqin oshno topish inson umrini uzaytirishi, umrga umr qo`shishi, hayotni go`zal va faravon aylashga xizmat qilishi ta`kidlanadi:

*Har kishikim, yaxshi-yaxshi oshno paydo qilur,
Naxli umridin, ne tong, nash`u namo paydo qilur².*

Yuqorida qayd etilganidek, Muqimiy shaxsiy hayoti aytarli darajada yaxshi kechmagan. Shoir oilasidan mehr ko`rmay, moddiy qiyinchiliklarda hayot kechirgan. Shuning uchun ham Muqimiy she`riyatida do`st-yoronlaridan mehr istash hissi sezilib turgan misralar ham bor:

*O`zgaralar nomehribonlik ila tashlab ketdilar,
Boshing haqqi sen bo`libon mehribon, kel ertaroq³.*

Ba`zi o`rinlarda kasallardan, ojizu notavonlardan, beva-bechorlardan xabar olish, ularga ko`maklashish musulmonlarning asosiy fazilati ekanligi uqtirilib, shunday misralarni bitgan:

*Xastai bemor bo`lsa notavon hijron ila,
Shundoq odam holig`a qandoq musulmon indamas⁴.*

Quyidagi misralar ham odamlar orasidan mehr va muhabbat, o`zaro hurmatning yo`qolib borayotganligidan shikoyat motivlari asosida yaratilgan:

*Nogahon bersam, Muqimiy, bir musulmong`a salom,
Daf`atan ikki qulog`ini qilur kar, toleim⁵.*

Yoki:

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 130-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 35-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 52-bet.

⁴ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 49-bet.

⁵ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 97-bet.

Mardumi puldor birlan unsu ulfat subhu shom.

Faqr ahlidin hazar, donolig`ingdin dog`man¹.

“Muqimiy lirikasidagi norozilik shikoyat, hayotdan bezish va tarkidunyochilik da’vati emas, balki mohiyat-e’tibori bilan hayotsevarlikdan, faravon turmush va baxtli zamon haqidagi orzu-umidlarlaridan kelib chiqqan”². Xuddi shuning uchun ham shoir hayot lazzatlaridan, do`st-u ulfat suhbatlaridan, sevgi va visol onlaridan bahramandlikka chaqiradi, ona tabiat go`zalliklaridan, bahor nashidasidan zavqlanishga undaydi. Bu fazilat shoirning quyidagi g`azalida yaqqol aks etgan:

Ey yaxshilar, kelayluk, bir joyga yig`ilaylik,

O`ynaylik, kulaylik, omon bo`laylik.

Bu umr ekan baqosiz, dunyoi dun vafosiz,

O`ynaylik, kulaylik, omon bo`laylik.

Xush kechgan dam g`animat, ko`p chekma ranji zahmat,

O`ynaylik, kulaylik, omon bo`laylik.

G`amdin qurib majolim, yo`q emdi zarra holim,

O`ynaylik, kulaylik, omon bo`laylik.

Xalloq bandaparvar, qo`y qilma vahmi mahshar,

O`ynaylik, kulaylik, omon bo`laylik.³

Shoir she’rlari orasida yaqin kishilarga, ulfatlariga, do`st-u birodarlariga munosabat bildirilgan, turli iltimoslari izhor qilinganlari ham bor. Quyidagi she’r Muqimiyning yaqin kishilaridan biri, Qo`qonning Elakbof mahallasida istiqomat qilgan Hoji Zohid ismli kishiga bag`ishlangan. Chitfurushtlik bilan

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 107-bet.

² Abdug`afurov A. Muqimiy // Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent, 2001. 357-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 53-bet.

shug`ullangan Hoji Zohid moddiy jihatdan qiynalgan kishilarga, jumladan, Muqimiyga ham yordam berib turgan. Shuning uchun Muqimiy uni ko`ngliga yaqin olib, o`z iltimosini she`rda bayon qilgan.

*Ko`ngil yaqinlig`idin go`stoxlik qilurman,
Tobora qish sovuq, yo`q guppi chopon, afandim.*

*Chit to`qqiz olchin, astar, paxta bilan tayinlang,
Borgan zamoni bersin ul begumon, afandim.*

*Moshinachig`a berib, tikturmaganda barvaqt,
Sovuq havo, Muqimiy ojiz yomon, afandim¹.*

Muqimiy ko`pincha yolg`izlikdan, yakkalikdan norozi bo`lib, qalbi ozor chekadi:

*Charx kajraftoridin har lahza afsundir g`amim,
Sharh etarga yo`q rafiqim, g`amguzorim, hamdamim.*

Shoir o`zining yaqin do`sti Furqatga yozgan maktubida shunday deydi:

*Do`st bo`ldim har kishiga ko`rdim andin ming jafu,
Topmadim, dunyoni kezdim, munisi g`amxo`r men.*

*Dog` edim avval, Muqimiy, qo`ydilar dog` uzra dog`,
Yaxshilar birlan turib o`ltursam-chi koshki.*

Muqimiyning ko`pgina she`rlarida shaxsiy hayoti va shaxsiy kechinmalari aks etgan desak, xato qilmagan bo`lamiz. Chunki shoir ijodiy merosidan joy olgan she`rlarning deyarli ko`pchiligi hasbi hol mazmuniga ega. Muqimiy bir muxammasida o`zini “*baxti qora*”, “*tole`i shum*”, “*benavo*” deb ataydi:

*Naylayin o`rtanmayin baxti qoralig` o`tig`a,
Bo`ldi shum tole`larim bois gadolig` o`tig`a,
Yogmisham har dam o`tundek benavolig` o`tig`a,*

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 93-bet.

*Bunda bizni kuydurib mundog`judolig`o`tig`a,
Hech aytursanmi deb: "Xeshu taborim bor edi"¹.*

Bir o`rinda shoir mana bunday iqrorga keladi:

*Naylayin o`ylab tiriklikning kamiyu ko`stin,
Gar qilich kelsa boshimga degayman rostin,
So`zki haq bo`lsa: savolimga javobim kim desun.*

Hokim sinfga dushmanlik va begonalik Muqimiyni keng xalq ommasiga qarab yetakladi. Chunki u o`z noroziligining yaqin ifodasini milliy ozodlik harakatida ko`rdi va unga qarab intildi. Natijada, shoirning dunyoqarashida yangi ufqlar ochildi, uning she`riyatidan yakkalik, yolg`izlik va tanholik yo`qola bordi. G`azal – hajvga, lirika – satiragi qarab o`sdi. Bu satira ijtimoiy satira edi. Hokim tabaqadan begonalik va ochiqdan ochiq ularga dushman bo`lish, keng xalq harakatiga yaqinlashish natijasida Muqimiy ijodi haqiqiylik tomon burildi. U umr bo`yi rostgo`y bo`lishga ont ichdi va to o`lgunicha shu ontida qoldi.

4. Sevikli yorning vafosizligi va mehrsizligidan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar

Muqimiyning bir qator g`azallari ishq-muhabbat mavzusida yaratilgan. Ularda shoir lirik qahramoni vafodor va sadoqatli oshiq sifatida yorning go`zalligini ta`rif-tavsif qiladi, uni dunyodagi eng go`zal va betakror timsollar bilan tilga oladi. Ammo ana shunday baytlar orasida yorning vafosizligi va mehrsizligidan norozilik ohanglari aks ettirilgan g`azallar ham talaygina. Ko`rinishidan, bu mavzu an`anaviydek ko`rinsa-da, Muqimiy o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning birinchi xususiyati sodda va tushunarli, ayni paytda, ta`sirchan va nishonga bexato tegishi bilan badiiy qimmat kasb etadi.

*Kimga dod aylay bu bedodingni man, ey sangdil,
Oshno bo`ldim desam, ko`nglung seni begonada,¹-*

¹ Muqimiy. Ko`ngdum sandadur. Toshkent, 2009. 265-bet.

kabi sof xalqona misralarni Muqimiydek xalqchil shoirlargina ijod qilishlari mumkin.

Ag`yor eliga lutf ila ehson qachongacha?

*Qilmoq ko`ngulni lola kibi qon qachongacha?*²

Ushbu misralarda ma`shuqaning oshiqqa emas, balki raqiblarga (“ag`yor eliga”) lutf ko`rsatishi, bu holat esa oshiqning ko`ngilni qonga to`ldirishi o`z badiiy ifodasini topgan. Quyidagi misralarda esa oshiqqa lutf aylamagan ma`shuqadan unga jabr-u jafo ham qilmaslik, agar ma`shuqa lirik qahramonga kulib qaramas bo`lsa, raqibga ham vafo qilmasligi haqida oshiqona ilinj bilan murojaat qilinmoqda:

Yor agar lutf aylamas, jabru jafo ham qilmasun,

*Qilmas ersa manga, g`ayrig`a vafo ham qilmasun*³.

“Shoirning shoirligini uning yarq etib ko`zga tashlanadigan va xotirada manguga muhrlanib qoladigan favqulodda va ohorli timsol-u tashbehlari namoyon etadi”⁴. Haqiqatdan ham shoirning mahoratini uning shaklan go`zal, mazmunan teran va serqirra, badiiy barkamol she`rlari ko`rsatadi, shoirni uning o`quvchilar tomonidan e`tirof etilgan va xalq ko`nglidan joy olgan she`rlari mashhur qiladi. Bu jihatdan Muqimiyga ancha-muncha shoirlarga nasib qilmagan baxt kulib boqqan: shoirning xalq orzu-armonlari, dard-u tashvishlarini hassos misralarda aks ettirgan she`rlari, odamlarning ko`nglini bezovta qilgan, tilining uchida turgan fikru o`ylarini yorqin ifodalagan, oshiq ahlining otashin his-tuyg`ulari, goh mahzun, goh nekbin kechinmalarini o`tli tilda tarannum etgan g`azallari, murabba` va muxammsalarining aksariyati dilo`rtar qo`shiqlarga aylanib, san`at shaydosi, she`riyat shinavandasi bo`lgan xalqimizning ko`nglidan chuqur joy oldi.

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 133-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 138-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 115-bet.

⁴ Ochilov E. O`zbek xalqining mo`tabar shoiri // Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent, 2009. 22-bet.

*Aqlu hush uchdi boshimdin, ey pari, devonaman,
Bir iloje qil, el ichra bo`lmayin afsona man¹.*

Yoki

*Oh, umrim bir sanam ishqida barbod ayladim,
Boqmadi chandonki yig`lab, dodu faryod ayladim².*

singari baytlarda oshiqning ruhiy holati naqadar xalqona va hayotiy tasvirlangan.

Muqimiy lirik qahramoni ba'zan oshiqona qarg`ishlari bilan ham o`quvchi e'tiborini o`ziga tortadi. Quyidagi misrlarada lirik qahramon xalq orasida mavjud bo`lgan "ko`z yoshi tutadi" iborasini keltirib. ma'shuqani ogohlantirishga harakat qiladi:

*Mani qachongacha hijron g`amida yig`latasan,
To`kib ko`zum yoshi sani bir kun tutor, mayligamu?³*

Navbatdagi misralarda esa ma'shuqadan bevafo ko`rgan lirik qahramon uni qarg`ishlarga ko`madi, bevafo yorni jafo qiluvchi, sitamgar, nokas, pastkash, tuban deb ataydi, baxti qoralarga qiron kelishini o`tinib so`raydi:

*Iloho, jumla tuxmi bevafolarga qiron kelsun,
Jafojo`, siflaxo`, baxti qarolarg`a qiron kelsun⁴.*

Ammo bunday fikrlar lirik qahramonning qat'iy qarori emas, albatta. Chunki chinakam oshiq har qanday holatda ham sabr va bardosh bilan qiyinchiliklarni yengib o`tishga, yaxshi kunga ham, yomon kunga ham shukr qilishga odatlangan:

*Hajrida naylay, Muqimiy, shukr qilmay chora yo`q,
Ohu hasrat birla kechkoyman ajab, bo`lsun omon⁵.*

Ishq-muhabbat mavzusida yaratilgan she'rlarda, odatda uchta qahramon – oshiq, ma'shuqa va raqib obrazlari bo`ladi. Oshiq – lirik qahramon, u ishq o`tida yonadi, hijronda azob chekadi, yorning vafosizligidan o`rtanadi. Ma'shuqa esa

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 104-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 95-bet.

³ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 128-bet.

⁴ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 119-bet.

⁵ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 112-bet.

nihoyatda go`zal, ammo haddan ortiq jafujo`, vafosiz, oshiqqa azob berishni, uni qiynashni yoqtiradi. Uchinchi obraz – raqib obrazi oshiq va ma`shuqa orasiga raxna soluvchi, ma`shuqani yo`ldan ozdiruvchi, oshiqning qiyinchiliklarga giriftor bo`lishiga sabab bo`luvchi obrazdir. Shuning uchun ham lirik qahramon raqib (begona, ag`yor, g`ayr)ga moyillik ko`rsatuvchi ma`shuqa xatti-haraktlaridan ozorlanadi:

*Ohkim, begonag`a oshnorlig`ingdin dog`men,
Oshnoga a`ni beparvolig`ingdin dog`men¹.*

Quyidagi baytda esa lirik qahramon qattiq talab qilish (ibrom) haddan oshmasin, arzingni kamroq aytgil-u sabr qil, - deya o`z-o`zini ogohlantirmoqda:

*Sabr qil, Muqimiyo, haddin oshmasun ibrom,
Jahlaring horib tushdi arzingni demog`lardin².*

Muqimiy qo`llagan timsol-u tashbehtar ham o`zining tabiiy va samimiyligi bilan kishini hayratga soladi. Hamma ko`rgan-bilgan, lekin hech qachon e`tibor bermagan oddiy narsa-hodisalar shoir she`rlariga kutilmagan va ohorli tashbehtar sifatida kirib keladi. Aytaylik, tinchim buzildi, toqatim bitdi, degan odatiy so`zlarni u mana bunday go`zal timsol-u tashbehtar vositasida o`ziga xos tarzda ohorli va ta`sirchan qilib aytadi:

Mevai sabrim to`kuldi shoxi oromim sinib.

Yoki bir lahza bahona topib, zulm o`tkazishdan maqsad nima degan fikrni quyidagicha kutilmagan o`xshatish orqali betakror shaklda ifodalaydi:

Zulm tanburin burab, har lahza soz etmak nadur?

Mumtoz adabiyotda mujgon (ma`shuqaning kipriklari) oshiq ko`nglini nishonga olish maqsadida unga qaratib otilgan o`qqa qiyos qilinadi. Ammo Muqimiy lirik qahramoni uni xomaga, ko`z qarosini esa xoma uchun mo`ljallangan qora rangga o`xshatadi:

*Xoma mujgon, ko`z qarosidin yozib rozi dilim,
Arzaye qildim eshit, ma`yusu mushtoqonaman¹.*

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 107-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 108-bet.

Shoir ma'shuqani rahm –shafqatli bo`lishga chaqiradi:

Rahm ayla menga, ey bag`ri qattiq,

Diydam to`la qon, ey sho`xi zolim².

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy she'riyati yangi o`zbek adabiyotining shakllanishida, ayniqsa unda ijtimoiy yo`nalish va serohanglikning markaziy o`rin egallashida muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

¹ Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 104-bet.

² Muqimiy. Bog` aro. Toshkent, 2010. 99-bet.

UMUMIY XULOSALAR

O`zbek adabiyotida o`chmas iz qoldirgan siymolardan biri bo`lgan Muqimiy she`riyatida norozilik tuyg`ularining ifodalanishi bo`yicha olib borgan kuzatishlarimiz asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Muqimiy o`zbek adabiyoti tarixida ijtimoiy yo`nalishni rivojlantirgan, she`riyatga yangi mavzu va obrazlarni olib kirgan ijodkordir.

Muqimiy o`zidan katta meros qoldirgan shoirlardan biridir. Garchi u faqat she`riyatda ijod etgan bo`lsa-da, bu she`riyat o`zining mavzusi va badiiy-g`oyaviy jihatdan rang-barangligi bilan qimmatlidir. Shoir o`zigacha bo`lgan adabiyotimizning eng yaxshi an`analarini davom ettiribgina qolmay, uni yangi mazmun bilan boyitdi, yuqori pog`onaga ko`tardi. SHoir she`rlarini mavzusiga an`anaviy ishq-muhabbat mavzusidagi she`rlar, ijtimoiy mavzularda yaratilgan she`rlar, hasbi hol mazmuniga ega bo`lgan she`rlar, deya tasnif qilish mumkin. Uchala yo`nalishdagi she`rlarida ham norozilik, shikoyat ohanglari bilan yo`g`rilgan misralarni, baytlarni, g`azallarni uchratishimiz mumkin.

Muqimiy ijodining katta qismini an`anaviy ishq-u muhabbat mavzusidagi she`rlar tashkil etadi. Lekin u ana shu an`anaviy mavzuni ham salafaridan o`tib kelayotgan bir qadar kitobiy obrazlar emas, balki hayotiy timsollar vositasida yoritadi. U tashbehni ko`proq tevarak-atrofdan qidirdi, hamma ko`rib, lekin e`tibor bermaydigan narsa-hodisalar aro bog`liqlik va o`xshashliklarni topib, go`zal badiiy shakllarda she`rlari qatiga olib kirdi.

Muqimiy she`rlari orasida mavjud tuzum bilan kelisha olmaslik, uning tartib va qonuniyatlaridan norozilik kayfiyatlari aks etgan she`rlar ham talaygina. Shuning uchun ham biz ushbu kichik ilmiy izlanishimidda shoir she`rlarida ifodalangan norozilik g`oyalarini o`rganar ekanmiz, ularni 4 xil tasnif qilishga harakat qildik. Har bir tasnifning o`ziga xos xususiyatlarini, muhim jihatlarini ko`rsatib berishga urindik. Bular:

- 1.Davrdan, mavjud tuzumdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar.
- 2.Mashaqqatli hayot, og`ir turmushdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar.

3.Yaqin do`st, hamdard yo`qligidan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar.

4.Sevikli yorning vafosiziligi va mehrsizligidan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar.

Har bir turkumga kiradigan she`rlar o`rni-o`rni bilan tahlil qilindi, mavzuga oid she`rlar, bayt va misralar tahlil etildi. Ishning xulosasi sifatida shuni ta`kidlash kerakki, davrdan, mavjud tuzumdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan yoki yaqin do`st, hamdard yo`qligidan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan g`oyalalar alohida she`rlarda bo`lmay, balki boshqa mavzudagi, masalan, ishq-muhabbat mavzusidagi she`rlar orasida alohida bir misra yoki baytda ushbu qarashlarni ham uchratish mumkin. Xuddi shuningdek, sevikli yorning vafosiziligi va mehrsizligidan norozilik tuyg`ulari aks etgan qarashlarni faqat sevgi-muhabbat mavzusidagi she`rlarda emas, balki davrdan, mavjud tuzumdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilgan she`rlar orasida alohida misra yoki bayt shaklida uchratish mumkin. Demak, shoir asarlarida ushbu g`oyalari umumlashgan holda berilgan, desak xato qilmagan bo`lamiz.

Muqimiy ijodini tahlil qilar ekanmiz, shoirning 151 ta g`azalidan 98 tasida norozilik ohanglari – davrdan, mavjud tuzumdan norozilik; mashaqqatli hayot, og`ir turmushdan norozilik tuyg`ulari; yaqin do`st, hamdard yo`qligidan shikoyat ohanglari; sevikli yorning vafosiziligi va mehrsizligidan shikoyat tuyg`ulari aks ettirilganligi ko`rish mumkin. Shulardan 8 tasida boshdan-oxir norozilik va shikoyat ohanglari yetakchilik qilsa, qolganlarida alohida bayt yoki misralarda bunday ruh yetakchilik qiladi.

Shoir she`riyatidan joy olgan murabba`larning aksariyatida sevikli yorning vafosiziligi va mehrsizligidan shikoyat tuyg`ulari aks ettirilgan. Ularda boshqa ruhdagi qarashlarni uchratmaymiz. Muxammaslar (ularning soni 31 ta) mavzusiga ko`ra uch xil tasnif qilindi:

Ishqiy mavzudagi muxammaslar, ijtimoiy yo`nalishdagi muxammaslar va satirik yo`nalishdagi muxammaslar. Shoirning mustaqil muxammaslarida ham, taxmis muxammaslarida ham mavzuga oid she`rlarni uchratamiz. Ularning

aksariyatida mashaqqatli hayot, og`ir turmushdan norozilik tuyg`ulari aks ettirilganligi diqqatimizni tortdi.

Bir umr xalq ichida yurgan, xalq bilan birga nafas olgan, xalq turmushi, orzu-o`ylarini yaxshi bilan Muqimiy xalqona so`z va iboralarni topib ishlatishga juda usta. Shoir she`rlari sodda, tushunarli, ayni paytda, ta'sirchan va nishonga bexato tegishi bilan o`ziga xos badiiy qimmat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. Toshkent, 1998. 436 bet.
2. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: “Ma`naviyat”, 2008. 176 bet.
3. Abdug`afurov A. Muqimiy // Ma`naviyat yulduzlari. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 408 bet.
4. Afoqova N. Jadid she`riyati poetikasi. Toshkent: “Fan”, 2005. 126 bet.
5. Karimov G`. Muhammad Aminxo`ja Muqimiy. Asarlar. 2 jildli. 1-jild. Toshkent: O`zdavnashr, 1960. 376 bet.
6. Qosimov B., Dolimov U. Muqimiy // O`zbek milliy uyg`onish adabiyoti. Toshkent, 2003. 436 bet.
7. Rahimjonov N. Shoir va davr. Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1983.
8. Muqimiy. Tanlangan asarlar. Toshkent: O`zFA nashriyoti, 1958. 364 bet.
9. Muqimiy. Asarlar to`plami. Ikki tomlik. 1-2 tomlar. Toshkent: O`zdavnashr, 1960.
10. Muqimiy. Tanlangan asarlar. Toshkent: O`qituvchi, 1973. 226 bet.
11. Muqimiy. Asarlar. Toshkent: G`.G`ulom nashriyoti, 1974. 198 bet.
12. Muqimiy. Bog` aro. Toshkent: Akademnashr nashriyoti, 2010. 312 bet.
13. Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent: Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2009. 272 bet.
14. Mo`minova S. Uyg`oqlikka chorlovchi she`rlar // “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali. Toshkent, 2007. 6-son.
15. Karimov G`. Mavlono Muqimiy. (So`zboshi) // Muqimiy. Asarlar. Toshkent: O`qituvchi, 1974. 246 bet.
16. Ochilov E. O`zbek xalqining mo`tabar shoiri / Muqimiy. Ko`nglum sandadur. Toshkent, 2009. 272 bet.
17. Qodirov V. Muqimiy lirikasida xalqona ifoda omillari. O`zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2008. 2-son. 51-52-betlar.

18. Tazkirai Qayyumiy. 1-kitob. Toshkent, 1998.
19. G`afur G`ulom. Muqimiy // Asarlar. 10 jildlik. 8-jild. Toshkent, 1976. 228 bet.
20. Norboyev B. Istiqlol va iste`dod tarbiyasi. Toshkent: "Fan", 1996. 228 bet.
21. Qayumov A. Asarlar. 4-kitob. Toshkent: Mumtoz so`z, 2009. 236 bet.
22. Quronov D. So`z va badiyyat. Toshkent: "O`qituvchi", 2003. 22 bet.
23. [www. tdpu. uz.](http://www.tdpu.uz)
24. [www. ziyoNET. uz.](http://www.ziyoNET.uz)
25. [www. pedagog. uz.](http://www.pedagog.uz)
26. [www. edu. uz.](http://www.edu.uz)